KONFERENSIYA
2025 –OKTABR

KONFERENSIYA

2025

- PHILOLOGICAL SCIENCES
- PEDAGOGICAL SCIENCES
- SOCIAL SCIENCES AND HUMANITES
- EXACT SCIENCES
- NATURAL SCIENCES
- ECONOMICS
- ART AND CULTURE
- MEDICAL SCIENCES

OPEN ACCESS

+998 97 277 78 01

KONFERENSIYA
2025 –OKTABR

Ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar. Muammo va yechimlar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy 10-sonli online konferensiyasi.

«INTELLECT EDUCATION OFFICIAL»
NODAVLAT TA’LIM MUASSASASI

«TA’LIM-TARBIYA JARAYONIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR. MUAMMO VA YECHIMLAR» MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY 10 -SONLI ONLINE KONFERENSIYASI

10-SON , 1-JILD OKTABR– 2025 1-QISM

WWW.TALIMFIDOYILARI.UZ

KONFERENSIYA
2025 –OKTABR

EDITOR IN CHIEF
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
PREPARING FOR PUBLISHING
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

BOSH MUHARRIR
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
NASHRGA TAYYORLOVCHI
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

TAHRIR KENGASH A'ZOLARI

Azimov Jumanazar Turg'unovich
O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi dosenti. Fizika-matematika fanlari falsafa doktori. PhD.

Dr. Israilov Mamarakhim
Doctor of Philosophy (Ph.d) Technics., Associate professor of the Department of "Natural Sciences" of the Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Maksudova Firuza Xurshidovna
Toshkent farmatsevtika institutining «Dori vositalarining sanoat texnologiyasi» kafedrasi mudiri

Kojikbaeva Ziyada Adilbaevna
Qoraqalpoq davlat universiteti Jurnalistika kafedrasi dotsenti

Allaberganova Gulchehra Masharipovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining "Umumiy fizika" kafedrasi dotsenti

Shamshiyeva Hulkar
Toshkent shahri Olmazor tumani Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi matematika o'qituvchisi

Soliyev Hayitboy Mirzadavlatovich
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsenti

Ustaboyev Abdullo Raximjonovich
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, katta o'qituvchi

Matyakubova Yulduzxon Amanbayevna
Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasi, qishloq ho'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Mirzabdullaeva Gulnora Muxammadjon qizi
Namangan muhandislik-qurilish instituti menejment kafedrasi assistenti

Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich
Academy of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan Social-Humanitarian professor of the Department of Sciences, Doctor of philosophy, professor

Shukhrat Batirovich Djabbarov
Ph.D. (Tech.), Department of "Wagons and wagon facilities", Tashkent State Transport University

Shokirova Havasxon Nurmamatovna
Farg'ona xalq ta'limi boshqarmasi Ta'lim markazi direktori

Baratova Maxbuba Mubinjanovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Dauletmuratova Zamira Usnatdinovna
Qoraqalpoq davlat universitetining Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasining assistent-o'qito'vchisi

Xakimniyazov Jolmurza Xojabekovich
Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix fanlari nomzodi docent

Qodirov Ziyoidin Mamadalievich
Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

Alimjon Tojiev Mo'ydinovich
Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Tojiboeva Gulxumor Raxmonjonovna
Andijon davlat universiteti umumiy psixologiya kafedrasi katta o'qituvchi

Yunusova Gulshod Nazixovna
Namangan davlat universitetining «Amaliy matematika va axborotlartexnologiyalari» kafedrasi katta o'qiituvchisi

Ergashev Bobirjon Boxodirovich
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar talimi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani

Abdugapparov Farkhod Sultonakhmadovich
PhD, Senior Lecturer, Department of Chemistry, Andijan State University, Republic of Uzbekistan.

Nabieva Saidaxon Abduvaxabovna
Toshkent davlat texnika universiteti Sanoat iqtisodieti va menejmenti kafedrasi dotsenti (PhD)

ZAKIROVA RUXSONA YUNUSOVNA
Toshkent farmatsevtika institutining Dori vositalarining sanoat texnologiyasi kafedrasi v/b dotsenti

Raxmatullaeva Gulnora Kutbitdinovna
TTa nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasi dotsenti

Achilova Sanobar Sabirovna
Urganch davlat universiteti kimyoviy texnologiyalar fakulьteti Ozik ovkat kafedrasi dotsenti

Turakulov Ibroxim Ravshanovich
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Aniq-tabiiy va jismoniy madaniyat fakulteti Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasi v.v.b.dotsenti

Usmonalieva Risolat Umaralievna
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi" Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Sobirov Abdulxay Shukirovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha prorektori

Jo'rayev Hamza Hamraqulovich
Uzbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, San'atshunoslik fakulteti, Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedrasi dotsenti

Erkaboy Yu. Derdibaev
Toshkent davlat agrar universiteti, Dexkonchilik va melioratsiya kafedrasi professori

Saidova Markhabo Xabibullo kizi
DOCTOR OF PHILOSOPHY (PH.D) in ECONOMICAL SCIENCES

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI

Samarqand shahar Ko‘l mahallasi tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchisi Nizomov Bekzod Nizom o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Xususan, kichik biznes sub’ektlarining moliyaviy, tashkiliy va huquqiy muammolari tahlil qilinib, davlat va bozor mexanizmlari orqali ularni qo‘llab-quvvatlash yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida moliyaviy imtiyozlar, soliq yengilliklari, biznes inkubatorlari, raqamli platformalar hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xizmat ko‘rsatish sohasi, bozor iqtisodiyoti, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, qo‘llab-quvvatlash, innovatsiya, davlat-xususiy sheriklik.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития малого бизнеса в сфере услуг в условиях рыночной экономики. В частности, анализируются финансовые, организационные и правовые проблемы субъектов малого бизнеса и указываются пути их поддержки посредством государственных и рыночных механизмов. Кроме того, предлагаются рекомендации по совершенствованию финансовых льгот, налоговых преференций, бизнес-инкубаторов, цифровых платформ и механизмов государственно-частного партнёрства для обеспечения устойчивого развития малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, сфера услуг, рыночная экономика, организационно-экономические механизмы, поддержка, инновации, государственно-частное партнёрство.

Abstract: This article explores the development of small businesses in the service sector under market economy conditions. In particular, it analyzes the financial, organizational, and legal challenges faced by small business entities and identifies ways of supporting them through state and market mechanisms. The paper also provides recommendations for

improving financial incentives, tax benefits, business incubators, digital platforms, and public-private partnership mechanisms to ensure the sustainable growth of small businesses.

Keywords: small business, service sector, market economy, organizational and economic mechanisms, support, innovation, public-private partnership.

Bugungi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning eng tez sur‘atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ushbu jarayonda kichik biznesning roli beqiyosdir. U innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy etish, bozor talablariga mos xizmatlarni taklif etish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholining farovonligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Kichik biznes, o‘z mohiyatiga ko‘ra, har qanday iqtisodiyotning, jumladan bozor iqtisodiyotining asosiy tayanchi hisoblanadi. Chunki u iqtisodiyotda uchraydigan ko‘plab muammolarni hal qilish imkonini beradi. Xususan, ishsizlikni kamaytirish, aholining turli tovar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, davlat byudjetini to‘ldirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda kichik biznesning samarali faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyotida “kichik biznes” tushunchasi aniq iqtisodiy mezonlarga asoslanadi. Unga ko‘ra, korxonalarda ishlovchilarning o‘rtacha yillik soni, ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi, jalb etilgan sarmoya miqdori va boshqa ko‘rsatkichlar ma’lum chegaradan oshmasligi lozim. Shu bilan birga, turli mamlakatlarda ushbu mezonlar milliy qonunchilik asosida turlicha belgilangan bo‘lib, korxonalar kichik, o‘rta va yirik turlarga ajratiladi [2-5]. Shunday qilib, xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, balki mamlakatning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishiga ham bevosita hissa qo‘shuvchi muhim institut sifatida qaraladi.

Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning muhim yo‘nalishlaridan biri texnologik va infratuzilma ta‘minotini yaxshilash hisoblanadi. Bu borada biznes inkubatorlari va texnoparklar faoliyatini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda zamonaviy uskunalarni tadbirkorlarga lizing asosida taqdim etish samarali natijalar bermoqda. Mazkur chora-tadbirlar kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish salohiyatini oshirishga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, tadbirkorlarning kasbiy malakasini oshirish, ular uchun treninglar, seminarlar va maslahat xizmatlarini tashkil etish ham kichik biznesning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Chunki yuqori malakali kadrlar mavjudligi biznes faoliyatining samaradorligini oshiradi, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilaydi va yangi innovatsion yondashuvlarni joriy etishga imkon beradi.[4-16]

Mazkur sharoitda davlat va nodavlat institutlari tomonidan qo‘llab - quvvatlash mexanizmlarini yaratish va takomillashtirish alohida dolzarbdir. Avvalo, moliyaviy mexanizmlar kichik biznes rivojlanishida asosiy o‘rin tutadi. Bu borada past foizli kreditlar, subsidiya asosidagi kreditlar, mikromoliya va grant dasturlarini kengaytirish talab etiladi. Shuningdek, kafillik jamg‘armalarini rivojlantirish tadbirkorlarning kredit resurslariga erkin kirish imkoniyatlarini kengaytiradi [5-43].

Bundan tashqari, davlat tomonidan soliq va huquqiy me‘yoriy yengilliklarni ta‘minlash ham kichik biznes uchun muhim qo‘llab-quvvatlash vositasidir. Soliq imtiyozlari berish, hisobot tizimini soddalashtirish, litsenziya va ruxsatnomalar olish tartibini yengillashtirish kichik biznes subyektlari uchun qulay sharoit yaratadi. Shu bilan birga, marketingni rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash, onlayn savdo platformalariga chiqish imkoniyatini kengaytirish kichik biznesning raqobatbardoshligini oshiradi [3 - 10].

Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesni yanada rivojlantirish uchun elektron xizmatlar va raqamli platformalarni keng joriy etish muhimdir. Bu nafaqat tadbirkorlarning vaqtini tejaydi, balki byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi va faoliyatda shaffoflikni ta’minlaydi. Kichik biznesni klasterlash orqali ularning o‘zaro hamkorligini rag‘batlantirish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish ham istiqbolli yo‘nalishlardan hisoblanadi. Mahalliy hokimiyatlar tomonidan “kichik biznes uchun qulay muhit”ni shakllantirish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish esa kichik biznesning rivojlanishini jadallashtiradi [1 - 7].

Xulosa qilib aytganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, jamiyatda bandlik darajasini oshirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishning muhim shartlaridan biridir. Bu jarayonda moliyaviy, tashkiliy, huquqiy va

texnologik yondashuvlarning uyg‘unligi muhim bo‘lib, ular kichik biznesning bozor sharoitlariga tezkor moslashuvini ta’minlaydi va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kenjaboyev A.T. Elektron biznes asoslari. O‘quv qo‘l./ A.T. Kenjaboyev, M.Yu. Jumaniyazova; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent Moliya in-ti. Toshkent: “Iqtisod- moliya”, 2008. 276 bet.

2. Musayev B.Sh. Kichik biznesni boshqarish. o‘quv qo‘llanma. “Fan bulog‘i” nashriyoti. Samarqand.: 2021

3. Rasulov M. *Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq imtiyozlari va kichik biznes.* Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020

4. To‘qtasimov M. va boshqalar. Kichik biznes va xususan tadbirkorlik asoslari / M. To‘qtasimov va boshqalar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. 256 b.

5. Umurzakov U.P., Toshboyev A.J. Kichik biznes va tadbirkorlik. O‘quv qoilanma. Toshkent: “Sano-standart”, 2014

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH

Samarqand shahar Ko‘l mahallasi tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchisi Nizomov Bekzod Nizom o‘g‘li

Annotatsiya: Maqolada xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Ta‘kidlanishicha, ushbu tarmoqdagi barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning qariyb 90 foizini tashkil etuvchi mikro biznesning innovatsion salohiyati hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Tadqiqotda kichik biznes subyektlari hajmi, ularning innovatsion faoliyati va unumdorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka alohida e‘tibor qaratilgan. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalar nafaqat xizmatlar sifatini oshiradi, balki kichik biznesning barqaror o‘sishi va raqobatbardoshligini ta‘minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, kichik biznes, xizmat ko‘rsatish sohasi, mikrofirmalar, unumdorlik, barqaror rivojlanish.

Аннотация: В статье анализируется значение инновационных подходов в развитии малого бизнеса в сфере услуг. Отмечается, что инновационный потенциал микробизнеса, который составляет около 90 процентов всех хозяйствующих субъектов данного сектора, пока недостаточно изучен. В исследовании особое внимание уделяется взаимосвязи между масштабом малых предпринимательских субъектов, их инновационной деятельностью и производительностью. Анализ зарубежных и отечественных исследований показывает, что инновации не только повышают качество услуг, но и становятся важным фактором устойчивого роста и конкурентоспособности малого бизнеса.

Ключевые слова: инновации, малый бизнес, сфера услуг, микропред приятия, производительность, устойчивое развитие.

Abstract: The article analyzes the importance of innovative approaches in the development of small business in the service sector. It is emphasized that the innovative

potential of micro-businesses, which account for about 90 percent of all economic entities in this sector, has not yet been sufficiently studied. The study pays special attention to the interrelation between the size of small business entities, their innovative activities, and productivity. The analysis of foreign and domestic research shows that innovations not only improve the quality of services but also serve as a crucial factor for the sustainable growth and competitiveness of small businesses.

Keywords: innovation, small business, service sector, microfirms, productivity, sustainable development.

Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini taminlovchi, bandlik darajasini oshiruvchi hamda aholining farovonligini yuksaltiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish esa kichik biznesni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqib, uning samaradorligi va raqobatbardoshligini kuchaytiradi hamda jahon bozorida mustahkam o‘rnini topishiga xizmat qiladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesni samarali rivojlantirish zamonaviy innovatsion yechimlarni keng joriy etishni talab etadi. Chunki raqobat kuchayib borayotgan bozor sharoitida an‘anaviy usullar bilan yuqori natijaga erishish qiyinlashmoqda. Shu bois, kichik biznes subyektlari faoliyatida texnologik yangiliklarni qo‘llash, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini raqamlashtirish zarurdir. Innovatsion yondashuvlar nafaqat xizmat ko‘rsatish sifati va tezkorligini oshiradi, balki mijozlarning ehtiyojlarini chuqur o‘rganib, ularga moslashuvchan yechimlarni taklif etish imkonini beradi.[5]

Mazkur jarayonda bir necha yo‘nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, **raqamli texnologiyalarni tatbiq etish** onlayn xizmatlar, elektron to‘lov tizimlari, mobil ilovalar va sun‘iy intellekt asosida ishlovchi dasturlarni qo‘llash orqali mijozlar bilan interaktiv aloqani kuchaytirish mumkin. Ikkinchidan, **texnologik modernizatsiya** orqali zamonaviy uskunalar, avtomatlashtirilgan tizimlar va “aqlli” xizmatlar tarmog‘ini rivojlantirish orqali

samaradorlikni oshirish imkoniyati mavjud. Uchinchidan, **kadrlar salohiyatini oshirish** orqali xizmat ko‘rsatish sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash, treninglar, master-klasslar va xalqaro tajribani joriy etish kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi. To‘rtinchidan, **marketing va innovatsion boshqaruv usullarini qo‘llash** orqali xizmatlarni diversifikatsiya qilish, mijozlarga individual yondashuv va yangi xizmat turlarini joriy etish orqali bozor raqobatida ustunlikka erishiladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesning innovatsion rivojlanishi bo‘yicha olib borilgan xalqaro tadqiqotlarda ko‘proq yirikroq firmalarga e‘tibor qaratilgan. Masalan, Loof va Heshmatining o‘z ishlarida kamida 10 - 20 nafar xodimga ega bo‘lgan firmalarning innovatsion faoliyatini tahlil qilganlar. Biroq xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida barcha firmalarning 90 foizini tashkil etuvchi mikrofirmalarning innovatsion imkoniyatlari bo‘yicha hali yetarli natijalar olinmagan. Bu esa kichik biznes subyektlarining innovatsion jarayonlardagi o‘rnini chuqurroq tadqiq qilish zarurligini ko‘rsatadi. [3. 75–82]

Ilmiy adabiyotlarda kichik biznes subyektlari hajmi bilan innovatsion faoliyat o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligi ta‘kidlanadi. Shu asosda, ko‘pincha mikrofirmalar innovatsiyadan chetda qoladimi, degan savol tug‘iladi. Shuningdek, innovatsion faoliyat bilan firma unumdorligi o‘rtasidagi sabab-oqibat masalasi ham dolzarbdir. Krepon va hamkorlari hamda Zal tadqiqotlarida innovatsion mahsulot yoki xizmatlarni joriy etish natijasida unumdorlik oshishi kutiladi, degan g‘oya ilgari surilgan. Ammo, Aspara va boshqalar olib borgan tadqiqotlar teskari jarayon ham mavjudligini ko‘rsatadi. Ya‘ni yuqori unumdorlikka ega bo‘lgan firmalar ko‘proq innovatsion faoliyat olib boradi. Mazkur yondashuvlar shuni anglatadiki, xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesning innovatsion faoliyatini samarali rivojlantirish uchun nafaqat texnologik yechimlarni, balki mikrofirmalarning o‘ziga xos imkoniyatlari va resurslarini ham hisobga olish lozim. Chunki innovatsion jarayonlar nafaqat xizmat sifatini oshiradi, balki kichik biznesning unumdorligi va barqaror o‘sishini ta’minlovchi omilga ham aylanadi.[1.997–1018]

Shu nuqtai nazardan, kichik biznes va ayniqsa mikrofirmalarning innovatsion rivojlanishi masalasi nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ularning ijtimoiy ahamiyati bilan ham dolzarbdir. Chunki mikrofirmalar ko‘plab mamlakatlarda aholining keng qatlamlari uchun

bandlik manbai hisoblanadi va ularning faoliyatida innovatsion yondashuvlarni joriy etish yangi ish o‘rinlari yaratish, xizmat ko‘rsatish sifati va tezkorligini oshirish, bozor talablariga tez moslashish imkonini beradi.[4. 317–344]

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes innovatsiyalarni ko‘proq moslashuvchanlik va ijodkorlik orqali amalga oshiradi. Audretsch, Kritikos va Schiersch ta‘kidlaganidek, mikrofirmalar ko‘pincha katta moliyaviy resurslarga ega bo‘lmagan bo‘lsalarda, ular mijozlarga yaqinligi va bozor ehtiyojlariga tezkor javob berish qobiliyati tufayli innovatsion jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesning innovatsion imkoniyatlarini faollashtirish uchun maxsus qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Birinchidan, raqamli transformatsiyani kengaytirish mikrofirmalar uchun onlayn platformalar, elektron to‘lov tizimlari va raqamli marketing vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish muhimdir. Ikkinchidan, davlat va nodavlat institutlar tomonidan innovatsion grantlar, texnologik inkubatorlar va biznes-akseleratorlarni rivojlantirish orqali kichik biznes subyektlarining yangi g‘oyalarini amalga oshirishiga sharoit yaratish lozim. Uchinchidan, mikrofirmalarning kadrlar salohiyatini oshirish, ularni yangi texnologiyalarni qo‘llashga tayyorlash va xalqaro tajribani joriy etish innovatsion faoliyat samaradorligini oshiradi.[2. 115–158]

Xulosa qilib aytganda, xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesning innovatsion rivojlanishi faqat texnologik yangiliklar bilan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy muhit, qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va resurslardan oqilona foydalanish bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Demak, kichik biznesning innovatsion faoliyatini kuchaytirish mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, xizmat ko‘rsatish sohasida yangi imkoniyatlar yaratish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Audretsch, D. B., Kritikos, A. S., Schiersch, A. *Microfirms and innovation in the service sector.* Small Business Economics, 55(4), 2020. 997–1018. https://doi.org/10.1007/s11187-019-00178-6

2. Crepon, B., Duguet, E., Mairesse, J. *Research, innovation and productivity: An econometric analysis at the firm level*. Economics of Innovation and New Technology, 7(2), 1998. 115–158

3. Глазьев С.Ю. *Теория долгосрочного технико-экономического развития*. Москва.: 1993

4. Lööf, H., Heshmati, A. *On the relationship between innovation and performance: A sensitivity analysis.* Economics of Innovation and New Technology, 15(4-5), 2006. 317–344

5. Musayev B.Sh. Kichik biznesni boshqarish. o‘quv qo‘llanma. “Fan bulog‘i” nashriyoti. Samarqand.: 2021

Ingliz tilini o‘qitishda korpusga asoslangan yondashuv: nazariya va amaliyot

Aliyeva Baxtiniso Botir qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu ishda ingliz tilini o‘qitishda korpusga asoslangan yondashuvning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilish imkoniyatlari tahlil qilindi. Korpus lingvistikasi ta’lim jarayonida til birliklarini real kontekstlarda o‘rganish, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va o‘qituvchilarning metodik salohiyatini oshirishda samarali vosita sifatida ko‘rib chiqildi. Chet el tajribasida korpuslarning keng qo‘llanilishi, jumladan, British National Corpus va boshqa yirik loyihalar asosida olib borilgan tadqiqotlar misolida yoritildi. Shuningdek, O‘zbekiston olimlarining ingliz tili ta’limida korpus yondashuvini qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlari, mavjud yutuqlar va muammolar ko‘rib chiqildi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari misolida korpus texnologiyalarining afzalliklari, ularni qo‘llashning real sharoitlari hamda yechim talab qiladigan jihatlar aniqlandi. Xulosa qilib aytganda, korpusga asoslangan yondashuv ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy va samarali metod bo‘lib, o‘quvchilarning tilni chuqurroq va faol o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar korpus lingvistikasi, ingliz tili o‘qitish metodikasi, data-driven learning, konkordan, kollokatsiya, umumiy o‘rta ta’lim, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, O‘zbekiston ta’lim tizimi**.**

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida ingliz tilini samarali o‘rgatish masalasi O‘zbekiston ta’lim tizimining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chet tillarini chuqur o‘rganish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki mamlakatning ilmiy, iqtisodiy va madaniy integratsiyasi uchun ham zarurdir. Shu nuqtai nazardan, an’anaviy o‘qitish metodlari bilan bir qatorda zamonaviy, texnologiyaga asoslangan metodlarning joriy etilishi katta ahamiyat kasb etadi. Shunday metodlardan biri korpus lingvistikasiga asoslangan yondashuvdir.

Korpus lingvistikasi — bu tilni real matnlar, og‘zaki va yozma nutqlar asosida o‘rganish imkonini beruvchi ilmiy yondashuvdir. U kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan bo‘lib, katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor va aniq tahlil qilishga yordam beradi. O‘quv jarayonida korpuslardan foydalanish o‘quvchilarga tilni quruq qoidalar orqali emas, balki jonli misollar yordamida o‘rganish imkonini yaratadi[1].

Corpus tushunchasi va nazariy asoslar

“Corpus” atamasi lotin tilidagi corpus — “badan, to‘plam” so‘zidan kelib chiqqan. Lingvistika nuqtai nazaridan esa korpus — bu kompyuterda qayta ishlash mumkin bo‘lgan katta hajmli matnlar bazasidir. U yozma adabiy asarlar, gazeta maqolalari, ilmiy matnlar, suhbatlar va turli xil og‘zaki nutq yozuvlarini o‘z ichiga olishi mumkin[2].

Korpus lingvistikasi nazariy asoslarini ko‘plab olimlar ishlab chiqqan. McEnery va Wilson uni “tilni empirik dalillarga asoslanib o‘rganish metodi” deb ta’riflagan[3]. Biber, Conrad va Reppen esa korpus tahlilini til birliklarini real kontekstdagi foydalanishini aniqlashda eng samarali usullardan biri sifatida baholagan[4].

Corpus lingvistikasi uchta asosiy yo‘nalishda qo‘llanadi: **deskriptiv** (tilning real ishlatilishini tasvirlash), **pedagogik** (til o‘rgatishda qo‘llash), **amaliy** (lug‘at tuzish, mashina tarjimasi, nutqni tanish tizimlari yaratish). O‘qitishda korpusdan foydalanish “data-driven learning” nomi bilan mashhur. Bu usulda o‘quvchilar konkordan dasturlari yordamida ma’lum bir so‘z yoki iboraning qanday kontekstlarda uchrashini mustaqil o‘rganadilar. Natijada ular til birliklarining haqiqiy qo‘llanilishini ko‘rib, nazariy qoidalarni jonli misollarda tushunib oladilar[5].

Korpus lingvistikasining ta’limdagi qo‘llanilishi dastlab Buyuk Britaniya va AQShda keng rivojlandi. Masalan, Brown Corpus, British National Corpus, COBUILD Corpus kabi

---

[1] Leech G. Corpora and Language Teaching // International Journal of Corpus Linguistics. – 1997. – № 2(2). – P. 83–104.

[2] . Kennedy G. An Introduction to Corpus Linguistics. – London: Longman, 1998. – 280 p.

[3]. McEnery T., Wilson A. Corpus Linguistics. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2001. – 210 p.

[4] . Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 320 p.

[5] Johns T. Data-driven Learning: The Perpetual Challenge // CALL. – 1991. – № 4(2). – P. 1–14.

yirik to‘plamlar yaratilgan va ularning asosida darsliklar, lug‘atlar hamda o‘quv qo‘llanmalar ishlab chiqilgan.

McEnery va Wilson korpus lingvistikasining nazariy asoslarini batafsil ishlab chiqib, uni lingvistik tadqiqotlarda asosiy metod sifatida e’tirof etishgan[3]. Biber va hamkorlari turli nutq registerlarini (ilmiy, rasmiy, norasmiy, og‘zaki, yozma) korpus yordamida taqqoslab, tilning funksional jihatlarini ochib bergan[4]. Johns tomonidan ilgari surilgan data-driven learning yondashuvi esa talabalarni faol tadqiqotchi sifatida jalb etib, ularni mustaqil tahlil qilishga undaydi[5].

Shuningdek, Römer korpuslarning ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rgatishda samaradorligini ko‘rsatgan va o‘qituvchilar uchun maxsus qo‘llanmalar ishlab chiqqan. Sinclair esa “Corpus, Concordance, Collocation” asarida til birliklarining o‘zaro bog‘liqligini chuqur o‘rgangan[6].

O‘zbekistonda ham korpus lingvistikasiga qiziqish ortib bormoqda. So‘nggi yillarda ingliz tili ta’limida bu metodni qo‘llash bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirildi. Abdunazar Juraev ingliz tili so‘z boyligini oshirishda korpus imkoniyatlarini o‘rgangan va o‘quvchilarning konkordan misollar orqali yangi so‘zlarni tezroq o‘zlashtirishini isbotladi[7]. Kamola Zayniyeva ingliz tili darslarida korpus vositalarining samaradorligini tadqiq qilib, talabalar til strukturasi va grammatikani real kontekstda o‘zlashtirishlarini ko‘rsatdi[8]. Nilufar Barnoeva grammatika o‘qitishda korpusning afzalliklarini o‘rgangan va an’anaviy metodlarga nisbatan ko‘proq natija berganini ta’kidladi[9]. Saodat Adilova esa o‘zbek tilini chet elliklarga o‘rgatishda korpus resurslarining imkoniyatlarini ochib berdi[10]. Barno

[6] . Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991. – 178 p.
[7] Juraev A. Kh. Corpora in Teaching English Language Vocabulary // Central Asian Journal of Medicine. – 2023. – № 2(5). – P. 45–52.
[8] Zayniyeva K. G. Using Corpus Linguistics in English Language Teaching: Analysis and Results // International Journal of Applied and Innovative Academic Research. – 2022. – № 6(9). – P. 27–35.
[9] Barnoeva N. The Efficiency of Corpus Linguistic in Teaching Grammar // Open Idea. – 2021. – № 4(1). – P. 66–73.
[10] Adilova S. A. Corpora and Corpus-Based Teaching Uzbek to Foreigners // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – № 8(11). – P. 395–402

Kutlimuratova ingliz tilini o‘rganayotgan o‘zbek talabalarining yozma insholarini korpus asosida tahlil qilib, eng ko‘p uchraydigan xatolarni tizimlashtirdi[11].

Bundan tashqari, “FeruzaSpeech” loyihasi doirasida o‘zbek tilidagi nutq korpusini yaratish ishlari olib borilmoqda. Bu esa kelajakda ingliz tili bilan bir qatorda o‘zbek tilini ham korpus asosida o‘qitish imkonini beradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida qo‘llash imkoniyatlari

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida korpusga asoslangan yondashuvni qo‘llash juda muhim. Avvalo, o‘quvchilar real matnlarga duch keladilar va ularni tahlil qilish orqali tilni jonli his etadilar. Masalan, ingliz tilidagi maqola, blog yoki suhbat yozuvlaridan olingan parchalar o‘quvchilar uchun qiziqarli va hayotiy bo‘ladi.

Korpus yordamida o‘quvchilar so‘zlarning bir-biri bilan qanday bog‘lanishini (kollokatsiyalarni) ko‘rishadi. Masalan, make a decision va do homework kabi iboralar grammatik qoida orqali emas, balki real qo‘llanish misollarida o‘zlashtiriladi. Bu esa xatoliklarni kamaytiradi.

O‘qituvchilar uchun ham korpus katta imkoniyatlar yaratadi. Ular dars jarayonida autentik materiallardan foydalanishlari, grammatik qoidalarni hayotiy misollar bilan tushuntirishlari mumkin. Shuningdek, korpus asosida tayyorlangan test va mashqlar o‘quvchilarning amaliy bilimlarini baholashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi[12].

Muammolar va yechimlar

O‘zbekiston sharoitida korpus yondashuvini joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Avvalo, texnik baza hamma maktablarda ham yetarli emas. Internet tezligi, kompyuterlar soni va dasturiy ta’minot cheklangan. Ikkinchi muammo — o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi. Korpus dasturlari bilan ishlash maxsus ko‘nikmalarni talab qiladi, ammo barcha pedagoglar bunga ega emas. Uchinchi muammo esa mavjud korpuslarning mahalliylashtirilmaganligidir. Ko‘pchilik korpuslar ingliz tilidagi G‘arb madaniyatiga oid materiallarga asoslangan.

[11] Kutlimuratova B. Uzbek Students Learning EFL: Corpus-Based Error Analysis ResearchGate. –2024. – URL: https://www.researchgate.net/publication/390314100 (murojaat qilingan sana: 04.10.2025).
[12]Römer. U. Using Corpora in the Language Classroom. – London: Palgrave Macmillan, 2008. – P. 150–175.

Bu muammolarni hal qilish uchun bir necha choralar ko‘rish mumkin. Birinchidan, maktablarda internet va kompyuterlar sonini oshirish lozim. Ikkinchidan, o‘qituvchilarni maxsus kurslar va seminarlar orqali korpus texnologiyalari bilan tanishtirish kerak. Uchinchidan, o‘zbek o‘quvchilari uchun moslashtirilgan, mahalliy madaniyatga oid korpus resurslarini yaratish zarur.

Xulosa

Korpus lingvistikasi ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy va samarali metod hisoblanadi. Bu yondashuv o‘quvchilarga tilni real kontekstlarda o‘rganish, so‘z boyligini kengaytirish, grammatikani hayotiy misollar orqali tushunib olish imkonini beradi. O‘zbekiston sharoitida korpus asosida o‘qitishni yo‘lga qo‘yish ayrim qiyinchiliklarga duch kelsa-da, bu muammolarni texnik, metodik va tashkiliy choralar bilan hal etish mumkin.

Natijada, korpus lingvistikasi asosidagi o‘qitish o‘quvchilarning ingliz tilini samarali o‘rganishiga, o‘qituvchilarning metodik mahoratini oshirishiga va ta’lim tizimining xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo‘lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Leech G. Corpora and Language Teaching // International Journal of Corpus Linguistics. – 1997. – № 2(2). – P. 83–104.

2. Kennedy G. An Introduction to Corpus Linguistics. – London: Longman, 1998. – 280 p.

3. McEnery T., Wilson A. Corpus Linguistics. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2001. – 210 p.

4. Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 320 p.

5. Johns T. Data-driven Learning: The Perpetual Challenge // CALL. – 1991. – № 4(2). – P. 1–14.

6. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991. – 178 p.

7. Juraev A. Kh. Corpora in Teaching English Language Vocabulary // Central Asian Journal of Medicine. – 2023. – № 2(5). – P. 45–52.

8. Zayniyeva K. G. Using Corpus Linguistics in English Language Teaching: Analysis and Results // International Journal of Applied and Innovative Academic Research. – 2022. – № 6(9). – P. 27–35.

9. Barnoeva N. The Efficiency of Corpus Linguistic in Teaching Grammar // Open Idea. – 2021. – № 4(1). – P. 66–73.

10. Adilova S. A. Corpora and Corpus-Based Teaching Uzbek to Foreigners // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – № 8(11). – P. 395–402

11. Kutlimuratova B. Uzbek Students Learning EFL: Corpus-Based Error Analysis ResearchGate. –2024. – URL: https://www.researchgate.net/publication/390314100 (murojaat qilingan sana: 04.10.2025).

12 Römer. U. Using Corpora in the Language Classroom. – London: Palgrave Macmillan, 2008. – P. 150–175.

СПОРЫ *CLADOSPORIUM* В БИОАЭРОЗОЛЯХ КАРШИНСКОГО ОАЗИСА

Рахимов Абдихофиз Лутфуллаевич

доцент отделения Аэробиологии Международного Центра молекулярной аллергологии при Агентстве инновационного развития

Маматова Бахора Шокир кизи

магистрант, университет Туран

Аннотация

Грибы рода *Cladosporium* — одни из наиболее часто встречающихся компонентов атмосферных биоаэрозолей. Они играют важную роль в экосистемах, но при этом могут вызывать аллергические реакции у чувствительных групп населения. Целью данной работы было выявить сезонную динамику и уровень концентрации спор *Cladosporium* в воздухе города Карши, расположенного в засушливом климате Южного Узбекистана. Исследование проводилось с сентября по декабрь 2024 года с использованием объёмного пылеуловителя типа *Lanzoni VPPS 2010*. Установлено, что споры *Cladosporium* присутствуют в воздухе круглый год, с максимальными значениями в тёплый и сухой сезон — с июня по сентябрь. Полученные результаты могут быть полезны в санитарно-эпидемиологических и аллергоаэробиологических исследованиях региона.

Ключевые слова: *Cladosporium*, споры, аэромицеты, биоаэрозоль, микромицеты, Карши, аллергены, сезонная динамика

Введение

Атмосферный воздух постоянно содержит множество микроскопических частиц, включая пыльцу, споры грибов, бактерии, пыль и другие компоненты, объединяемые понятием аэрозолей биологического происхождения — биоаэрозолей. Среди них важную роль играют споры микроскопических грибов, особенно родов *Cladosporium*, *Alternaria*, *Aspergillus* и др.

Cladosporium — широко распространённый род дематициевых микромицетов, обитающих в почве, на растениях, в воздухе и даже на продуктах. Споры *Cladosporium* особенно многочисленны в летне-осенний период. Они способны вызывать аллергию, в том числе бронхиальную астму и респираторные заболевания у чувствительных людей.

Каршинский оазис, расположенный в южной части Узбекистана, отличается резко выраженным аридным климатом: жаркое лето, частые суховеи, резкие перепады температуры. Эти особенности формируют специфическую структуру атмосферных биоаэрозолей, в том числе микромицетов.

Целью настоящей работы является: изучение сезонной динамики спор *Cladosporium* в атмосфере города Карши иоценка потенциальной аллергенной нагрузки.

Наблюдения проводились в городе Карши (Кашкадарьинская область, Узбекистан). Период наблюдений с сентября по декабрь 2024 года. Использован объёмный аэробиологический пылеуловитель *Lanzoni VPPS 2010*, установленный на высоте 15 м над землёй. Ловушка непрерывно работала с недельной заменой кассет, содержащих липкую ленту, на которую оседали аэрочастицы. После экспозиции ленты окрашивались и анализировались под световым микроскопом при увеличении ×400. Подсчёт спор *Cladosporium* проводился по стандартной методике (Nazarov, 2004; Pepeljnjak & Segvic, 2003). Результаты выражены в количестве спор на 1 м³ воздуха.

Результаты и обсуждение. Споры *Cladosporium* обнаруживались на протяжении всего исследуемого периода. Их сезонное распределение характеризовалось следующими особенностями: минимальные значения регистрировались в сентябре — менее 18 спор/м³ (табл.).

Таблица

Среднемесячная концентрация спор *Cladosporium* в воздухе г. Карши (2024)

Месяц	Сред. концентрация (споры/м³)	Сумма за месяц (споры/м³)
Сентябрь	4,23	127
Октябрь	383,8	11898
Ноябрь	415,6	12467
Декабрь	44,0	1363

Рост концентрации начинался с октября до конца ноября, достигал пика до 2077 спор/м³. Спад наблюдался в декабре.




Рисунок. Сезонная динамика споры *Cladosporium* в биоаэрозолях Каршинского оазиса

Наиболее активный период спороношения совпал с фазами активной вегетации и последующего отмирания растительности. Это объясняется тем, что *Cladosporium* питаются мёртвыми органическими остатками.

Сравнение с данными по другим регионам (Европа, Россия, Казахстан) показало схожую сезонную тенденцию, но в Каршинском оазисе из-за климатических условий пик наступает чуть позже.

Выводы. Споры *Cladosporium* являются постоянной составляющей атмосферных биоаэрозолей Карши. Максимальная концентрация наблюдается в середине осеньи. Учитывая аллергенный потенциал, рекомендуется учитывать концентрации *Cladosporium* в санитарно-эпидемиологической и аллергологической практике, особенно для уязвимых групп населения.

Литература

1. Ellis, M.B. Dematiaceous Hyphomycetes / M.B. Ellis. — Kew : Commonwealth Mycological Institute, 1971. — 608 c.
2. Domsch, K.H. Compendium of Soil Fungi / K.H. Domsch, W. Gams, T.H. Anderson. — London : Academic Press, 1980. — 859 c.
3. Назаров, И.М. Аэромикология: учебник / И.М. Назаров. — М. : Колос, 2004. — 303 с.
4. Pepeljnjak, S. Fungal spores in indoor air as a cause of allergies / S. Pepeljnjak, M. Segvic // Archives of Industrial Hygiene and Toxicology. — 2003. — Vol. 54, № 3. — P. 241–250.
5. Mullins, J. The aerobiology of Cladosporium and Alternaria / J. Mullins, et al. // Clinical Reviews in Allergy & Immunology. — 2004. — Vol. 27, № 3. — P. 211–230.

IJTIMOIY TADBIRKORLIKNING NAZARIY ASOSLARI VA KONSEPTUAL YONDASHUVLARI

Shirin Temirova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
shirintmrv@gmail.com

So‘nggi yillarda bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy manfaatlar bilan bir qatorda ijtimoiy adolat, barqarorlik va aholini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan tamoyillar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sharoitda ijtimoiy tadbirkorlik fenomeni shakllanib, klassik tadbirkorlik va ijtimoiy faoliyatning uzviy uyg‘unligida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur yo‘nalish zamonaviy iqtisodiyotda yangi iqtisodiy va ijtimoiy mexanizm sifatida qaralib, nafaqat foyda olish, balki ijtimoiy foyda yaratish, jamiyat muammolariga yechim topish hamda resurslardan samarali foydalanishga yo‘naltiriladi.

Ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasi iqtisodiy faoliyatning yangi paradigmasi sifatida, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishning innovatsion mexanizmlarini o‘zida mujassam etadi. Bu yo‘nalish G.Dees, M.Yunus, B.Drayton, Ch.Lidbiter kabi tadqiqotchilarning ishlari orqali shakllangan bo‘lib, ularning nazariy qarashlari ijtimoiy tadbirkorlikni jamiyat farovonligi yo‘lida iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish vositasi sifatida talqin etishga asos bo‘ldi

Ijtimoiy tadbirkorlik ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy foyda keltirishga yo‘naltirilgan innovatsion faoliyatni anglatadi. U an’anaviy biznesdan farqli ravishda ijtimoiy maqsadni asosiy ustuvorlik sifatida belgilaydi. Dees ta’rifiga ko‘ra, ijtimoiy tadbirkorlik – bu “ijtimoiy missiyani amalga oshirish uchun tadbirkorlik usullarini qo‘llash”dir [1]. Shuningdek, Yunusning “Grameen Bank” modeli orqali kambag‘allikka qarshi kurash va mikromoliyalashtirish tizimini joriy etish ijtimoiy biznesning amaliy ko‘rinishidir [2].

Ijtimoiy innovatsiyalar modeli

mavjud ijtimoiy muammolarga yangi, samarali yechimlar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan faoliyat

Ijtimoiy korxona modeli

foyda bilan bir qatorda ijtimoiy missiyani amalga oshirishga xizmat qiluvchi biznes faoliyat

Jamiyatni o‘zgartirish modeli

ijtimoiy adolat va inklyuziv rivojlanishni ta’minlovchi islohotlarni ilgari suruvchi strategik yondashuv

1-rasm. Ijtimoiy tadbirkorlik modellarining turlari

Ijtimoiy tadbirkorlik konsepsiyasi jamoat tovarlarini yaratish, bozor muvaffaqiyatsizliklarini bartaraf etish, ijtimoiy korxonalar shaklida gibrid tashkilotlar

yaratish hamda resurslarni ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilarning turli yondashuvlariga ko‘ra, ijtimoiy tadbirkorlikni yuqoridagi yo‘nalishlarda talqin qilish mumkin (1-rasm). Shu bois, ijtimoiy tadbirkorlikni faqat xayriya yoki notijorat faoliyat sifatida emas, balki strategik boshqaruvga asoslangan, bozor tamoyillaridan foydalanuvchi ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy maqsadi – jamiyatdagi dolzarb muammolarni innovatsion yo‘llar bilan hal etish va shu orqali ijtimoiy barqarorlikka hissa qo‘shishdir. Bu faoliyat iqtisodiy manfaatlar bilan bir qatorda axloqiy, ekologik va ijtimoiy qadriyatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy vazifalari jamiyatdagi dolzarb muammolarni aniqlash va ularni samarali hal etishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda ta’lim, sog‘liqni saqlash, ekologiya va reabilitatsiya kabi sohalarda innovatsion loyihalarni amalga oshirish muhim o‘rin tutadi. Ushbu faoliyat aholi, ayniqsa, zaif qatlamlarning iqtisodiy hayotda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, xotin-qizlar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yangi ish o‘rinlari yaratish orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tadbirkorlik davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ijtimoiy loyihalarni sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Mazkur yo‘nalishdagi muhim vazifalardan yana biri – moliyaviy barqarorlikni ta’minlash bo‘lib, bu o‘zini-o‘zi moliyalashtira oladigan va uzoq muddatli istiqbolga ega barqaror biznes modellarini yaratishni talab etadi. Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlikda innovatsion yondashuvni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yangi texnologiyalar, xizmatlar va ijtimoiy platformalarni joriy etish orqali faoliyat samaradorligini oshirishga imkon beradi. Umuman olganda, ushbu vazifalar ijtimoiy tadbirkorlikni klassik biznesdan ajratib turuvchi asosiy belgilardir. Ularning izchil amalga oshirilishi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiy inklyuziyani ta’minlash hamda aholining farovonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tadbirkorlarning muvaffaqiyatini belgilovchi omillar orasida motivatsiya muhim o‘rin egallaydi. Tadqiqotchilar (MacMillan, Germak, Robinson, Braga va Proença)ning ta’kidlashicha, ijtimoiy tadbirkorlar iqtisodiy manfaatlardan ko‘ra jamiyat farovonligini ustuvor deb biladilar. Ularning faoliyatida altruistik qadriyatlar, yangilikka intilish, mas’uliyat hissi va shaxsiy o‘sish ehtiyoji kabi omillar asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Altruistik qadriyatlar ijtimoiy tadbirkorlarni boshqalarning farovonligini o‘z manfaatlaridan ustun qo‘yishga undaydi. Innovatsion ehtiyoj esa ularni yangi g‘oyalar, texnologiyalar va boshqaruv yechimlari orqali jamiyat muammolariga samarali yechim topishga yo‘naltiradi. Mas’uliyat hissi ijtimoiy adolatni ta’minlashga, teng imkoniyatlarni

kengaytirishga va o‘z faoliyati orqali ijtimoiy tizimni yaxshilashga turtki beradi. Shaxsiy o‘sish ehtiyoji esa tadbirkorni jamiyat oldida foydali, faol va ijodkor shaxs sifatida namoyon bo‘lishga undaydi.

Shu sababli, ijtimoiy tadbirkorlar nafaqat iqtisodiy faoliyat bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy o‘zgarishlarning faol agentlari sifatida yangi g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etadilar. Ular davlat qamrovidan tashqarida qolayotgan ehtiyojlarni aniqlab, ularni qondirishga qaratilgan innovatsion xizmatlar va mahsulotlarni yaratadi. Bunday yondashuv orqali ijtimoiy tadbirkorlar jamiyatda barqaror rivojlanish, inklyuziv iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy adolatni ta’minlash jarayonlariga bevosita hissa qo‘shadilar.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy tadbirkorlik so‘nggi yillarda yangi bosqichda shakllanmoqda va asta-sekin milliy iqtisodiyotning ijtimoiy yo‘naltirilgan segmentiga aylanib bormoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, kambag‘allikni qisqartirish siyosati hamda barqaror rivojlanish strategiyalarining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Hozirgi kunda davlat tomonidan ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi joriy etilgan bo‘lib, u aholining iqtisodiy faolligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash va mahalliy darajada inklyuziv o‘sishni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Xususan, “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” kabi davlat dasturlari orqali turli ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Ushbu tashabbuslar doirasida aholining past daromadli qatlamlari uchun imtiyozli kredit liniyalari, subsidiyalar va grant mexanizmlari joriy qilinib, o‘z biznesini boshlamoqchi bo‘lgan shaxslar uchun moliyaviy va maslahat ko‘magi taqdim etilmoqda. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga soliq imtiyozlari, davlat xaridlari tizimida ishtirok etish imkoniyatlari hamda kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha trening dasturlari taqdim etilmoqda. Bularning barchasi mamlakatda ijtimoiy tadbirkorlik ekotizimini shakllantirishning muhim omillari sifatida e’tirof etiladi.

Ijtimoiy tadbirkorlik O‘zbekiston sharoitida nafaqat iqtisodiy o‘sishning yangi manbai, balki ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish siyosatining muhim elementi sifatida qaralmoqda. Ushbu faoliyat turi orqali ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, bandlik darajasini oshirish, ijtimoiy xizmatlar tizimini modernizatsiya qilish hamda yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish kabi vazifalar hal etilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish orqali aholining zaif qatlamlari – ayollar, yoshlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, mehnat migrantlarining qaytgan a’zolari va qishloq aholisi uchun iqtisodiy faollikni oshirishga yo‘l ochilmoqda. Bu jarayon ijtimoiy inklyuziya tamoyillarini amalda ro‘yobga chiqaradi va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.
Mazkur yo‘nalish “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida belgilangan asosiy ustuvor yo‘nalishlar bilan bevosita uyg‘unlikda rivojlanmoqda. Strategiyada ijtimoiy

tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash kambag‘allikni kamaytirish, fuqarolarning daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish va ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish bilan chambarchas bog‘langan. Shu sababli, ijtimoiy tadbirkorlik mamlakatning inklyuziv iqtisodiy o‘sishini ta’minlash hamda fuqarolik jamiyatini mustahkamlash yo‘lida strategik instrument sifatida e’tirof etilmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslari bosqichma-bosqich takomillashmoqda. 2022-yil 4-iyulda qabul qilingan Prezident qarori (“Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-314) bilan ushbu faoliyat turini rivojlantirish uchun aniq normativ-huquqiy baza yaratildi. Ushbu hujjat ijtimoiy korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini soddalashtirish, ular uchun soliq yengilliklari joriy etish, ijtimoiy loyihalarni baholash va monitoring qilish tizimini yo‘lga qo‘yishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, ijtimoiy innovatsiyalar markazlari, inkubatsiya dasturlari va ta’lim platformalari tashkil etilmoqda, bu esa ijtimoiy tadbirkorlik ekotizimini yanada barqaror shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tadbirkorlik zamonaviy iqtisodiy modelning ajralmas elementi bo‘lib, u ijtimoiy adolat, iqtisodiy samaradorlik va barqaror rivojlanish tamoyillarini birlashtiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. U inson manfaatlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, innovatsiyalar, ijtimoiy mas’uliyat, barqaror biznes modellar va jamiyat ehtiyojlariga mos yechimlarni ishlab chiqish orqali rivojlanadi.

O‘zbekiston uchun ijtimoiy tadbirkorlikni keng ko‘lamda rivojlantirish bu faqat yangi ish o‘rinlari yaratish bilan cheklanmay, balki fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi strategik yo‘nalishdir. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning huquqiy, tashkiliy va moliyaviy asoslarini yanada mustahkamlash, ijtimoiy innovatsiyalarni kengaytirish hamda ijtimoiy tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratish mamlakat iqtisodiyotining inklyuziv, raqobatbardosh va barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Dees J. G. (1998). The meaning of “social entrepreneurship”. Stanford University: Center for the Advancement of Social Entrepreneurship.
2. Yunus M. (2007). Creating a World Without Poverty: Social Business and the Future of Capitalism. New York: PublicAffairs.
3. Bacq S., Janssen F. (2011). The multiple faces of social entrepreneurship: A review of definitional issues based on geographical and thematic criteria. Entrepreneurship & Regional Development, *23*(5-6), 373-403.

ВЛИЯНИЕ ТЕРМИЧЕСКОЙ ОБРАБОТКИ НА МЕЖФАЗНЫЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В КРЕМНИЕВЫХ КОНТАКТНЫХ СТРУКТУРАХ

Атаубаева А.Б., Уразматова А.
Каракалпакский государственный университет им. Бердаха

Развитие современной микро- и наноэлектроники сопровождается повышением рабочих частот и температур, что предъявляет строгие требования к стабильности электрических контактов металл–полупроводник. В кремниевой электронике ключевую роль играют омические контакты, обеспечивающие минимальные потери при передаче сигналов и тепла. Одним из основных факторов деградации таких контактов является межфазное взаимодействие на границе металл–Si, активизирующееся при термических воздействиях [1, 2]. Для повышения стабильности применяются диффузионные барьеры на основе тугоплавких металлов и химически инертных соединений, препятствующие взаимной диффузии и изменению фазового состава контактной зоны [3].

Исследовались контактные структуры типа Au–Ti–TiB_2–Ti–n^+–Si. В качестве подложки использовался монокристаллический кремний (111), легированный фосфором до концентрации ~$2\cdot10^{19}$ $см^{-3}$ (метод Чохральского). Слои Ti (10–30 нм), TiB_2 (60–100 нм), дополнительного Ti (20–40 нм) и Au (100–150 нм) наносились методом магнетронного напыления на подогретую до 100–150 °C подложку. Такая последовательность формирования позволяет одновременно улучшить адгезию слоёв и частично инициировать силицидообразование уже на стадии осаждения. Термическая обработка проводилась в режиме БТО при температурах до 600 °C с последующим анализом профилей распределения компонентов и температурных зависимостей удельного контактного сопротивления.

Анализ профилей распределения элементов показал, что после БТО при 400 °C структура слоёв остаётся практически неизменной по сравнению с исходной. Удельное контактное сопротивление ρ_c сохраняет низкие значения, что связано с формированием омического контакта за счёт фаз Ti, TiSi и Ti_5Si_3. Их работы выхода электронов (3,71–3,99 эВ) меньше, чем у кремния (4,8 эВ), что обеспечивает лёгкий переход носителей и отсутствие значительных барьерных эффектов [3]. Таким образом, низкое контактное сопротивление достигается уже в процессе напыления, без необходимости высокотемпературного отжига.

При повышении температуры БТО до 600 °C наблюдается интенсивный массоперенос кремния в силицидный слой и образование фазы $TiSi_2$ ($\varphi_m \approx 4{,}18$ эВ). Сосуществование нескольких силицидных фаз с различными электронными свойствами приводит к неоднородности контактной области и существенному росту ρ_c по всему температурному диапазону. Эти изменения указывают на активацию

деградационных процессов и нарушение стабильности контакта при высоких температурах.

Ключевую роль в обеспечении термостойкости играет слой TiB_2, обладающий высокой температурой плавления, химической инертностью и прочными ковалентными связями [1, 2]. Его применение в сочетании с дополнительным слоем титана создаёт эффективный диффузионный барьер, стабилизирующий границу металл–Si до температур порядка 700 °C. Подобные многослойные системы перспективны для использования в микросхемах, работающих в жёстких термических и частотных условиях.

Проведённые исследования показали, что использование барьерных слоёв Ti и TiB_2 в контактных структурах металл–Si позволяет формировать стабильные омические контакты уже на этапе осаждения, а также предотвращает деградацию при последующем термическом воздействии. Оптимизация режимов БТО позволяет сохранить низкое удельное контактное сопротивление и повысить надёжность работы кремниевых устройств в широком диапазоне температур. Результаты подтверждают высокую эффективность многослойных барьерных систем для современной микроэлектронной технологии.

Литература

1. Агеев О.А. и др. Фазы внедрения в технологии полупроводниковых приборов и СБИС. Харьков: НТК «Институт монокристаллов», 2008.

2. Мьюрарка Ш. Силициды для СБИС. М.: Мир, 1986.

3. Фоменко В.С. Эмиссионные свойства материалов. Киев: Наукова думка, 1981.

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING LINGVOPEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING AKMEOLOGIK ASOSLARI

Olimjonova Nozimaxon Dilshod qizi – O'zbekiston milliy pedagogika universiteti magistri
nozimaxonolimjonova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda bo'lajak pedagoglarning lingvopedagogik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining mazmuni, mohiyati va akmeologik asoslari tahlil qilinadi. Lingvopedagogik kompetensiya o'qituvchining til vositasida ta'lim berish, kommunikativ muloqotni boshqarish, shuningdek, o'z kasbiy faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tadqiqotda akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagogning kasbiy o'sish dinamikasi, shaxsiy va kommunikativ rivojlanish omillari, hamda til orqali kasbiy mukammallikka erishish yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar: lingvopedagogik kompetensiya, akmeologiya, bo'lajak pedagog, kasbiy o'sish, kommunikativ madaniyat, refleksiya, metodik tayyorgarlik, innovatsion yondashuv.

Hozirgi globallashuv jarayonida ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichlari o'qituvchining lingvopedagogik kompetensiyasiga bevosita bog'liqdir. Chunki, pedagogning kasbiy muvaffaqiyati nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki ularni til orqali samarali yetkazish mahoratiga ham tayanadi. Shu bois, lingvopedagogik kompetensiya - bu o'qituvchining til, pedagogika va kommunikatsiya integratsiyasini amalga oshirishdagi kasbiy tayyorgarligi sifatida talqin etiladi. Lingvopedagogik kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Lingvodidaktik komponent - til vositalaridan ta'lim jarayonida metodik asosda foydalanish qobiliyati;
2. Kommunikativ komponent - muloqotda ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olish, nutq etiketiga rioya qilish;
3. Metodik komponent - tilni o'qitishning interaktiv va refleksiv texnologiyalarini qo'llay bilish;
4. Sotsiolingvistik komponent - til o'rgatish jarayonida madaniyatlararo muloqotni tashkil etish;
5. Akmeologik komponent - o'qituvchining o'z kasbiy cho'qqisiga erishish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyati.

Akmeologiya pedagogik jarayonda o'qituvchi shaxsining kasbiy va shaxsiy rivojlanish bosqichlarini o'rganishga qaratilgan fan sifatida "kasbiy akme" tushunchasiga tayangan holda harakat qiladi. "Akme" - bu inson faoliyatining eng yuqori cho'qqisi, o'z imkoniyatlarini maksimal darajada ro'yobga chiqarish bosqichidir. Shu nuqtai nazardan, lingvopedagogik kompetensiyani rivojlantirish akmeologik yondashuv asosida quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- Motivatsion akme: bo’lajak pedagogda til va kommunikatsiya vositalarini shaxsiy hamda kasbiy o’sish manbai sifatida anglashni shakllantirish;
- Kognitiv akme: lingvopedagogik bilimlar, zamonaviy o’qitish texnologiyalari va innovatsion kommunikativ strategiyalarni egallash;
- Faoliyatli akme: o’quv jarayonini interaktiv, kommunikativ va refleksiv yondashuvlar asosida tashkil etish;
- Shaxsiy akme: o’z pedagogik uslubini shakllantirish, ijodkorlik va refleksiv tafakkurni rivojlantirish.

Akmeologik yondashuvning amaliy ahamiyati shundaki, u o’qituvchini passiv bilim egasidan faol, o’zini rivojlantiruvchi va kommunikativ jihatdan yetuk mutaxassisga aylantiradi. Bu jarayonda refleksiya, o’z-o’zini baholash, kasbiy o’sish motivatsiyasini kuchaytirish va ijodiy tashabbuskorlik muhim o’rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, lingvopedagogik kompetensiyaning akmeologik rivojlanishi quyidagi pedagogik shart-sharoitlarda samarali kechadi: Ta’lim jarayonida interaktiv, refleksiv va kommunikativ metodlardan tizimli foydalanish; Chet tili o’rganish jarayonini pedagogik faoliyat bilan uzviy integratsiyalash; Bo’lajak pedagoglarda kasbiy o’zini rivojlantirishga ehtiyojni shakllantirish; Akmeologik muhit yaratish - ya’ni raqobat, ijodkorlik va o’zini namoyon etish imkoniyatlariga ega bo’lgan ta’lim muhitini tashkil etish.

Lingvopedagogik kompetensiyani rivojlantirishning akmeologik yondashuvi o’qituvchining nafaqat tilni mukammal bilish, balki uni ta’limiy, kommunikativ va tarbiyaviy vosita sifatida samarali qo’llash malakasini shakllantiradi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvni chuqurroq amalga oshirishga, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bo’lajak pedagoglarning lingvopedagogik kompetensiyasini rivojlantirish jarayoniga akmeologik yondashuvni joriy etish - bu ularning kasbiy yetuklikka erishish, kommunikativ madaniyatni shakllantirish va refleksiv tafakkurni rivojlantirishning muhim omilidir. Akmeologik asoslar pedagog shaxsining kasbiy “akme”siga, o’z faoliyatida mukammallikka erishish bosqichiga chiqishiga imkon yaratadi. Mazkur yondashuv nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham pedagogik ta’lim sifatini oshirish, o’qituvchini XXI asr talablari darajasida tayyorlash uchun zarur ilmiy asosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. “Yangi O’zbekiston - taraqqiyotning yangi bosqichida”. Toshkent: O’zbekiston, 2023.
2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Bo’lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish konsepsiyasi”. Toshkent, 2022.

3. Olimjonova N.D (2023). “MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY MOSLASHUV KO’NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH”. ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ.65-72.
4. Olimjonova N.D (2024). “THE MAIN PROBLEMS IN TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL-MIDDLE-AGED CHILDREN AND THEIR SOLUTIONS”. Scientific journal of preschool and school education.129-132
5. Sharipova G. S. & Olimjonova N.D (2025), “MAKTABGACHA TA’LIMDA XALQARO TAJRIBA VA INNOVATSION YONDASHUVLAR” International scientific-practical conference on “ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND EDUCATION: PROBLEMS, OPPORTUNITIES AND PROSPECTS”.279-282

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРИМЕНЕНИЯ ОТОАКУСТИЧЕСКОЙ ЭМИССИИ В ДИАГНОСТИКЕ БОЛЕЗНИ МЕНЬЕРА

А.И.БОЛТАЕВ, Э.Э.ОЧИЛОВ
Пайарикский техникум общественного здоровья имени Абу Али ибн Сина

Введение. Отоакустическая эмиссия все чаще используется как метод оценки функционального состояния внутреннего уха. Сейчас общепринято, что отоакустическая эмиссия является отражением активного микромеханического процесса на уровне наружных волосковых клеток (НВК) кортиевого органа. Данная работа проводилась с целью оценки возможностей данного объективного метода для диагностики болезни Меньера.

Целью исследования явилось применение метода регистрации отоакустической эмиссии в диагностике болезни Меньера.

Материалы и методы исследования. Обследованы 32 человека с болезнью Меньера (19 мужчин и 13 женщин). Возраст больных составил от 20 до 64 лет, давность заболевания колебалась от одного месяца до 18 лет: от 6 мес до года - 4 больных, от 1 года до 3 лет 14 человек, от 3 до 5 лет 11 человек, свыше 5 лет 3 человека. Обследование включало общий осмотр больного, осмотр ЛОР-органов, лабораторные тесты (анализы крови, мочи и т.д.), рентгенологическое исследование височных костей. Всем больным проводили комплексное аудиометрическое обследование: тональную пороговую аудиометрию, надпороговые тесты (Si-Si, Фоулера, Люшера, определение порога дискомфорта), определяли пороги и латерализацию ультразвука. Все больные были консультированы отоневрологом. Для сравнительного анализа обследована контрольная группа из 40 практически здоровых лиц. В эту группу были включены люди в возрасте от 20 до 60 лет, не имеющие жалоб на снижение слуха, в анамнезе заболеваний среднего уха в семейном анамнезе - наследственной тугоухости.

Результаты исследования При регистрации ПИОАЭ у больных получен ответ у 15 из 20 человек (75%) на частоте 500 Гц, у всех обследованных на частотах 1000 и 2000 Гц, у 8 человек (40%) частоте 4000 Гц. Особый интерес, по нашему мнению, имеют значения отоакустической эмиссии, полученные в лучше слышащем ухе, тональные пороги слуха в которых соответствовали норме и не превышали 20 дБ. В группе больных среднее увеличение амплитуды ПИОАЭ составило 2,7±0,5 дБ. Изменения амплитуды ЗВОАЭ не было зарегистрировано. При сравнении данных, полученных в лучше слышащем ухе, с контрольной группой видно, что средние значения ЗВОАЭ у пациентов с болезнью Меньера (при тональном пороге слышимости до 20 дБ) достоверно ниже, чем в контрольной группе. Сравнение амплитуды ПИОАЭ в контрольной группе позволило определить, что значения в контралатеральном ухе больных достоверно ниже, чем в нормальных ушах в контрольной группе на всех частотах.

Выводы Полученные данные свидетельствуют, что отоакустическая эмиссия может быть использована в качестве дополнительного метода оценки состояния слуховой функции после проведения дегидратации, а также для диагностики состояния структур внутреннего уха при болезни Меньера.

KUTUBXONADA INNOVATSIYALAR: ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA YANGI ILDIZLAR

Termiz davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Kutubxona-axborot faoliyati

yo‘nalishining 3-bosqich talabasi

Toshpo‘latova Rayhona Jo‘rabek qizi

Annatatsiya: Mazkur maqolada kutubxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati, zamonaviy axborot muhitida kutubxonaning o‘rni va funksiyalarining o‘zgarishi tahlil qilingan. Raqamlashtirilgan, elektron kataloglar, sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi orqali kutubxonalar qanday qilib zamonaviy bilim va innovatsiyalar markaziga aylanayotgani yoritib berilgan. Shuningdek, kutubxonachining yangi roli, foydalanuvchilarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning zamonaviylashuvi va kutubxonalarning ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi o‘rli haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kutubxona, innovatsiya, raqamlashtirish, elektron katalog, sun’iy intellekt, axborot texnologiyalari, kutubxonachi, bilim markazi.

Toshpo‘latova.R

Innovation in the library: New roost in the modern information space.

Abstract: This article analyzes the importance of introducing innovative technologies in libraries, the changing role and functions of the library in the modern information environment. It highlights how libraries are becoming centers of modern knowledge and innovation through the use of digitization, electronic catalogs, and artificial intelligence technologies. It also discusses the new role of the librarian, the modernization of services provided to users, and the role of libraries in socio-spiritual life.

Keywords: library, innovation, digitization, electronic catalog, artificial intelligence, information technology, librarian, knowledge center.

Toshpo‘latova.R

Zamonaviy davrda ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi barcha sohalarga, jumladan kutubxona faoliyatiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Endilikda kutubxona faqat axborot manbai emas, balki ma’naviy-ma’rifiy va innovatsion markaz sifatida faoliyat yuritmoqda. Innovatsion yondashuvlar kutubxonalarni yanada faol, interaktiv va samarali axborot makoniga aylantirmoqda. Shu bois, kutubxonalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xizmat ko‘rsatishning yangi shakllarini yo‘lga qo‘yish dolzarb masalaga aylangan. Hozirgi zamon kutubxonashunosligining umumiy yo‘nalishi jamiyatning har tomonlama axborotlashuvchi, milliy axborot infratuzilmalarini yaratish, yuksak axborot texnologiyalari yutuqlarini amaliyotga joriy qilish singari ijtimoiy va texnik hodisalarning g‘oyaviy-nazariy mazmunini aks ettirishdan iboratdir.

Kutubxonaning axborot resurslari maqsadga mos axborotni olish uchun tashkil etilgan ma’lumotlar yig‘indisidir. Kutubxona-bibliografiya resurslari- kutubxonalar oldida turgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan axborot, moddiy-texnik va xodimlar bazasi. Axborot resurslari jamiyatning va axborot iste’molchilarining talablarini qondirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar, faktlar va boshqalar haqidagi turli xil manbalar bo‘lib, kutubxonalarda va axborot markazlarida saqlanayotgan an’anaviy va mashinada o‘qiladigan axborot tashuvchilar har xil kataloglar va kartotekalar, ma’lumotlar banki va bazasi hamda axborotga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiluvchi intellektual va moddiy kuchlardan iborat.[1. 52]

Hozirgi kunda kutubxonalarni raqamlashtirishning o‘rni katta. Raqamlashtirish kutubxonalarda innovatsiyalarning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. An’anaviy bosma kitoblarni elektron ko‘rinishga o‘tkazish orqali ularni keng ommaga taqdim etish imkoniyati paydo bo‘ladi. Elektron kataloglar, onlayn kutubxona bazalari kitobxonlarga masofaviy xizmat ko‘rsatish imkonini yaratadi. Zamonaviy kutubxonalarda quyidagi innovatsion xizmatlar yo‘lga qo‘yilgan:

QR-kodli kitoblar: foydalanuvchi mobil qurilma orqali tezkor axborot oladi. Sun’iy intellekt asosidagi tavsiyalar: o‘quvchilarga qiziqishlariga mos kitoblar tavsiya etiladi. Multimedia xonalar: interaktiv darslar, onlayn seminarlar, treninglar o‘tkazish imkoniyati mavjud.

An’anaviy kutubxonachi obrazi o‘zgarmoqda. Bugungi kutubxonachi axborot texnologiyalarini biluvchi, foydalanuvchilarga yo‘naltirilgan xizmatlarni ko‘rsatuvchi, madaniy-ma’naviy faoliyatni tashkil etuvchi mutaxassis sifatida shakllanmoqda. Ular foydalanuvchilarni faqat kitob bilan emas, balki axborot resurslari, elektron bazalar va onlayn ta’lim platformalari bilan tanishtiradi. Ko‘plab kutubxonalar bugun turli xil ijtimoiy loyihalar, ta’limiy kurslar, seminarlar markaziga aylangan.

Bu esa kutubxonaning faqat o‘quvchi-yoshlar emas, balki barcha yosh toifalari uchun ochiq va jozibador joyga aylanishiga xizmat qilmoqda.

Kutubxonalarda zamonaviy axborot texnologiyasi tizimida MARK foramatlarning o‘rni katta. MARK formatlar bibliografik ma’lumotlarni mashinada o‘qishga asoslangan standartlardir. Kutubxona axborot tizimida MARK formatlar kutubxonada mavjud an’anaviy kataloglardagi bibliografik yozuvlarni, ayniqsa, ana shu kataloglar kartochkasiga sig‘may qolgan kengroq ma’lumotlarni mashinada o‘qiy olish imkonini beradi. Eng asosiysi, xalqaro MARK formatlar kommunikativ aloqa vositasi hamdir. [2.195.]

Raqamli texnologiyalar bugungi kunda kutubxonachilik sohasida eng asosiy yangiliklardan biridir. Kitoblar, maqolalar, arxiv hujjatlarini raqamlashtirish orqali ularni saqlash, izlash va foydalanish yanada qulaylashmoqda. Bu jarayon:

Axborot xavfsizligini ta’minlaydi, chunki bosma nusxalar zarar ko‘rishi yoki yo‘qolishi mumkin, raqamli shaklda esa uzoq muddatli saqlash imkoniyati mavjud. Masofadan xizmat ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yadi, ya’ni kitobxon uydan turib kutubxona fondidan foydalanishi mumkin. Ilmiy tadqiqotlar uchun manbalarni tez topish imkonini yaratadi, bu esa o‘quvchi va tadqiqotchilar uchun vaqt va resurslarni tejaydi. Ko‘plab oliy o‘quv yurtlari kutubxonalari hozirda o‘z fondini to‘liq raqamlashtirishga intilmoqda, bu esa ularning ilmiy salohiyatini oshiradi.

Zamonaviy kutubxonalar xizmat ko‘rsatishda turli innovatsion yondashuvlarni qo‘llamoqda: RFID texnologiyasi (Radio Frequency Identification): bu tizim orqali kitoblarni avtomatik tarzda ro‘yxatdan o‘tkazish, topshirish yoki olish mumkin, bu esa kutubxonachi ishini yengillashtiradi. Interaktiv axborot panellari: foydalanuvchi kerakli axborotni ekran orqali mustaqil topa oladi. Mobil ilovalar: ko‘plab kutubxonalar o‘z xizmatlarini mobil ilovalar orqali taqdim etmoqda — foydalanuvchi u orqali kitob bron qilish, yangi kelgan adabiyotlardan xabardor bo‘lishi, hatto onlayn o‘qishi mumkin. Virtual kutubxonalar va elektron resurslar platformalari (masalan, Ziyonet, JSTOR, Springer va boshqalar): bu resurslar orqali ilmiy va o‘quv adabiyotlar keng ommaga taqdim etilmoqda. Hozirgi zamon kutubxonachisi: Axborot texnologiyalari va dasturiy platformalarni yaxshi bilishi kerak. Foydalanuvchilarga onlayn xizmatlar bo‘yicha maslahat bera olishi zarur. Madaniy-ma’naviy tadbirlar tashkilotchisi, moderator sifatida ishlaydi.

Kitobxon bilan shaxsiy yondashuv asosida ishlay oladi, ya’ni foydalanuvchining qiziqishiga mos axborotni topib berish, tavsiya qilish.

Buning uchun kutubxonachilar malaka oshirish kurslarida, AKT bo‘yicha treninglarda ishtirok etishi zarur. Chunki ular endi shunchaki "kitob beruvchi" emas, balki axborot muhitining faol ishtirokchisi.

Respublikamizda axborot asrida yuz berayotgan o‘zgarishlar, kishilarimizning dunyo axborot olamiga kirishiga bo‘lgan intilishlari, qiziqishi va talablarining tobora ortib borish

ta’sirida milliy axborotlashtirish tizimini shakllantirish, axborotga bo ‘lgan talab va ehtiyojlarni qondirish jarayonini sifat jihatidan yanada takomillashtirish borasida davlatimizning bir qator qonuniy hujjatlari e’lon qilindi va hayotga tatbiq etildi. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risda”gi, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi va “ Elektron hujjatlarni aylanishi to‘g‘risida”gi, “Elektron raqamli yozuvlar to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompiyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kompiyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarini shular jumlasiga kiritish mumkin. [3.3]

Bugungi kunda kutubxonalar o‘quvchi va talabalar uchun nafaqat o‘qish joyi, balki ta’lim va ijodiy rivojlanish maydoniga aylangan:

Ilmiy-amaliy seminarlar, treninglar, kitobxonlik klublari tashkil etilmoqda. Startaplar va yosh ixtirochilar uchun markazlar ochilmoqda, bu yerda yoshlar o‘z loyihalarini namoyish etish, tajriba almashish imkoniga ega. Ko‘rgazmalar, interaktiv tadbirlar, multimediya darslar kutubxonalarning yangi imkoniyatlarini ochib bermoqda.

Masalan, Toshkentdagi “Axborot-resurs markazlari” ham o‘zining texnologik bazasi, ochiq fondli zallar, kompyuter va internet xizmatlari orqali yoshlarni innovatsion fikrlashga undamoqda.

Kutubxona faoliyati axborot xizmatining barcha turlarini qamrab oladi. Shunga ko‘ra kutubxona-axborot xizmatiijtimoiylashtiruvchi institut bo ‘lgan kutubxonaning tarkibiy qism sifatida ijtimoiy subyektlarning ehtiyojlarini qondirish va rivojlantirish maqsadida jahon axborot resurslari asosida kutubxona- bibliografik va axborot faoliyati vositalari yordamida turli usullar va shakllarda kutubxona- bibliografikva axborot mahsulotlarini hamda xizmatlarini taqdim etishdan iboratdir. Xizmat ko ‘rsatish zamonaviy kutubxonalarning yetakchi funksiyalaridan bo ‘lib, tizimga kiruvchi barcha bo ‘limlarning faoliyatini hamda ular tomonidan amalga oshiriladigan texnologikjarayonlarni uyg‘unlashtirilgan tarzda maqsadga yo‘naltirishdir.[4.49.]

Innovatsiyalar kutubxonalarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ular bilim va madaniyat saqlovchisi sifatidagi tarixiy vazifasini saqlab qolgan holda, raqamli dunyo talablariga ham javob beradigan multifunksional markazlarga aylanmoqda. Shunday ekan, kutubxonalarning rivoji – bu butun jamiyatning innovatsion taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omillardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, kutubxonalarda innovatsion yondashuvlarni joriy etish axborot xizmatlarining sifatini oshirish, foydalanuvchilarga ko‘proq qulaylik yaratish va kutubxonani zamonaviy axborot markaziga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnologiyalar kutubxona ishini avtomatlashtiribgina qolmay, balki jamiyatda bilim va ma’naviyat targ‘ibotchisi sifatida uning rolini yanada mustahkamlaydi. Shu

sababli, kutubxonalar faoliyatida texnologik yangiliklarni keng joriy etish va bu borada zamonaviy kadrlarni tayyorlash muhim vazifa sifatida qaralishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I. Berdiyeva. Z. “Bibliografiya” o ‘quv qo ‘llanma. 4-nashri.-Toshkent: NMIU, 2017- 52 b.
2. Z. Berdiyeva , H. Mamatraimova, T.Zokirova. “Bibliografiya” o‘quv qo‘llanma. 4-nashri.-Toshkent: 2017-195 b.
3. Z. Sh. Berdiyeva, “Kutubxonashunoslik” o‘quv qo‘llanma. 2-nashri.-Toshkent: “ILM ZIYO”-2013-3 b.
4. Toshboyeva U. Yangi tizim yoshlarda mutolaa madaniyatini yuksaltirishgaxizmat qiladi.//jur. 2019-49 b.

“Ko‘zi Ojizlar Uchun Kutubxona: Axborotga Tegishli Erkinlik va Matnni Eshitish Madaniyati”

Termiz davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

3-bosqich talabasi

Xo‘janazarova Nodira Burxonaliyevna

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ko‘zi ojiz insonlar uchun kutubxonalarning ahamiyati, ularni axborot bilan ta’minlashda yuzaga keladigan muammolar va zamonaviy texnologiyalar orqali yaratilayotgan imkoniyatlar yoritilgan. Xususan, Brayl alifbosidagi kitoblar, ovozli axborot vositalari, va raqamli kutubxona muhitining moslashuvi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ko‘zi ojizlar, kutubxona, Brayl, ovozli kitoblar, raqamli tenglik, inklyuziv axborot

Аннотация:

В данной статье рассматривается значение библиотек для незрячих людей, проблемы их доступа к информации и современные технологические решения. Особое внимание уделено книгам на шрифте Брайля, аудиоформатам и адаптации цифровых библиотек под нужды людей с нарушениями зрения.

Ключевые слова: незрячие, библиотека, Брайль, аудиокниги, цифровое

https://www.worldblindunion.org

https://e-lib.uz/audio-books

равенство, инклюзия

Annotation:

This article explores the role of libraries for visually impaired individuals, highlighting challenges in information access and the opportunities provided by modern technologies. Special focus is given to Braille books, audio resources, and the adaptation of digital libraries for inclusivity.

Keywords: visually impaired, library, Braille, audiobooks, digital equality, inclusive access

Kirish:

Axborotga ega bo‘lish — har bir insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Ammo zamonaviy texnologiyalar rivojlangan davrda ham, imkoniyati cheklangan, ayniqsa ko‘zi ojiz insonlar uchun axborotga teng kirish masalasi hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda. O‘qish – nafaqat bilim olish, balki tafakkur qilish, ijtimoiy hayotda ishtirok etish va madaniy merosga ulanib borish vositasidir. Shunday ekan, kutubxona muassasalari ko‘zi ojizlar uchun ham to‘liq ochiq va moslashtirilgan bo‘lishi zarur. Ushbu maqolada ko‘zi ojiz foydalanuvchilar uchun kutubxonalarning imkoniyatlari, mavjud muammolar, shuningdek, Brayl yozuvi, ovozli kitoblar va raqamli texnologiyalarning bu boradagi o‘rni tahlil qilinadi.

Ko‘rish imkoniyati cheklangan insonlar uchun axborotga erkin kirish huquqi muhim masaladir. Zamonaviy dunyoda kutubxonalar nafaqat matnli materiallar taqdim etadi, balki ko‘zi ojizlar uchun maxsus xizmatlar orqali ularning bilim olishiga yordam beradi. Ushbu maqolada ko‘zi ojizlar uchun kutubxonalar, ulardagi axborotga erkinlik, shuningdek, matnni eshitish madaniyati haqida so‘z

https://www.worldblindunion.org

https://e-lib.uz/audio-books

yuritamiz.

Ko‘zi ojizlar uchun kutubxona — bu ko‘rish qobiliyati cheklangan odamlar uchun mo‘ljallangan, ular uchun maxsus materiallar va xizmatlarni taqdim etadigan kutubxona

hisoblanadi. Bu kutubxonalar audio kitoblar, braille (shrift) kitoblar, elektron kitoblar va matnni ovozga aylantirish texnologiyalari bilan jihozlangan.

Axborotga tegishli erkinlik — bu insonlarning har qanday axborot manbalaridan erkin va to‘liq foydalanish huquqi. Ko‘zi ojizlar uchun bu huquq yanada muhimdir, chunki ular uchun an’anaviy bosma materiallar o‘qish qiyin yoki imkonsizdir. Shu bois, kutubxonalar ularning axborotga kirishini ta’minlash uchun maxsus resurslar yaratadi.

Matnni eshitish madaniyati – bu audio kitoblar, podkastlar, ovozli maqolalar kabi shakllarda matnni qabul qilish madaniyati hisoblanadi. Ko‘zi ojizlar uchun bu madaniyat o‘qishning asosiy shakli hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida matnni ovozga aylantirish tizimlari (text-to-speech) rivojlanmoqda, bu esa ko‘zi ojizlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda smartfonlar, planshetlar, maxsus dasturlar va qurilmalar yordamida ko‘zi ojizlar matnlarni osonroq eshita olishadi. Masalan, “screen reader” dasturlari, braille displeylar, ovozli kutubxonalar bunday imkoniyatlarni kengaytiradi. Bu texnologiyalar kutubxonalarda faol qo‘llaniladi va xizmatlar sifatini oshiradi.

Ko‘zi ojizlar uchun kutubxonalar xizmatlari hali ham to‘liq rivojlanmagan va resurslar yetishmasligi muammosi mavjud. Buning sabablari: moliyaviy cheklovlar, texnologiyalar yetishmasligi, mutaxassislar kamligi. Ushbu muammolarni hal etish

https://www.worldblindunion.org

https://e-lib.uz/audio-books

uchun davlat va nodavlat tashkilotlarining qo‘llab-quvvatlashi, jamiyatda onglilikni oshirish zarur.

Ko‘zi ojizlar uchun kutubxonalar axborotga erkin kirishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Matnni eshitish madaniyati va zamonaviy texnologiyalar ko‘zi ojizlar hayot

sifatini yaxshilashga yordam beradi. Ushbu yo‘nalishda qo‘shimcha resurslar va e’tibor zarur.

Xulosa:

Ko‘zi ojizlar uchun kutubxonalar axborotga erkin kirish huquqini ta’minlashda juda muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat bilim olish uchun zarur bo‘lgan materiallarni taqdim etadi, balki matnni eshitish madaniyatini rivojlantirishga ham hissa qo‘shadi. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, ovozli kitoblar va matnni ovozga aylantirish dasturlari, ko‘zi ojizlar uchun bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning ijtimoiy hayotga faolroq qo‘shilishlariga yordam beradi. Shu bilan birga, bu sohada hali ko‘plab muammolar, masalan, texnologik imkoniyatlar yetishmasligi, moliyaviy cheklovlar va mutaxassislar kamligi mavjud. Shu bois, davlat va jamiyat tomonidan bu yo‘nalishga alohida e’tibor qaratilishi, ko‘zi ojizlarning axborotga to‘la va erkin kirishini ta’minlash uchun resurslarni kengaytirish zarur. Shunday qilib, ko‘zi ojizlar uchun kutubxonalar va matnni eshitish madaniyati insonlarning teng huquqli bilim olish imkoniyatlarini ta’minlashda muhim omil bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva, M. (2020). Ko‘zi ojizlar uchun kutubxona xizmatlari: muammolar va yechimlar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Kutubxonasi nashriyoti.

https://www.worldblindunion.org

https://e-lib.uz/audio-books

2. Karimov, D. (2018). Brayl yozuvi va uning zamonaviy rivojlanishi. Ilmiy jurnal, 12(3), 45-53.

3. Xolmurodov, S. (2019). Ovozli kitoblar va raqamli texnologiyalarning ko‘zi ojizlar uchun imkoniyatlari. Toshkent: Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari markazi.
4. World Blind Union (2021). Access to information and libraries for blind and visually impaired people. Retrieved from https://www.worldblindunion.org
5. UNESCO (2017). Guidelines for Accessible Library Services for Persons with Visual Impairment. Paris: UNESCO Publishing.
6. Nazarov, I., & Islomova, G. (2022). Matnni ovozga aylantirish texnologiyalari va ularning kutubxonalardagi qo‘llanilishi. Axborot texnologiyalari jurnali, 5(1), 27-34.
7. E-lib.uz. (2023). Ovozli kitoblar kutubxonasi va uning imkoniyatlari. Olingan manzil: https://e-lib.uz/audio-books

https://www.worldblindunion.org

https://e-lib.uz/audio-books

INSONIYAT HAYOTIDA ILK YOZUVLARNING YARALISH TARIXI

Termiz davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti
3-bosqich talabasi
O‘rinboyeva Durdona Usmon qizi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada insoniyat hayotida yozuvning paydo bo‘lishi va uning ilk shakllari tahlil qilinadi. Yozuvning sivilizatsiya taraqqiyotidagi roli, qadimgi yozuv tizimlari va ularning ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

***Kalit so‘zlar*:** yozuv tarixi, qadimgi sivilizatsiyalar, klin yozuvi, iyeroglif, yozuv tizimi

Аннотация:

В статье рассматривается происхождение письменности и её ранние формы в истории человечества. Анализируется роль письма в развитии цивилизации и значение древнейших систем письма.

Ключевые слова: история письма, древние цивилизации, клинопись, иероглифы, система письма

Annotation:

This article discusses the origins of writing and its early forms in human history. It analyzes the role of writing in the development of civilization and the importance of ancient writing systems.

Keywords: history of writing, ancient civilizations, cuneiform, hieroglyphs, writing system

Kirish

Insoniyat tarixida yozuvning paydo bo‘lishi sivilizatsiya taraqqiyotining muhim burilish nuqtalaridan biridir. Dastlab og‘zaki nutq orqali avloddan-avlodga o‘tgan bilim va tajriba, yozuv ixtirosi bilan barqaror saqlana boshladi. Yozuv vositasida insonlar nafaqat iqtisodiy va ma'muriy jarayonlarni tartibga soldi, balki tarixiy, madaniy va diniy merosni ham hujjatlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ushbu maqolada yozuvning ilk shakllari, uning yuzaga kelish sabablari hamda qadimgi sivilizatsiyalardagi yozuv tizimlari haqida so‘z yuritiladi. Insoniyat hayotida ilk yozuvlarning yaralishi — bu sivilizatsiyaning rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Yozuv insoniyatga bilim, tajriba va madaniyatni avloddan-avlodga uzatish imkonini berdi. Quyida yozuvning yaralish tarixi haqida asosiy ma'lumotlar keltirilgan: Insoniyat tarixida yozuvning paydo bo‘lishi sivilizatsiyaning rivojlanishidagi eng muhim burilish nuqtalaridan biri hisoblanadi. Og‘zaki nutq orqali avloddan-avlodga uzatilgan bilim va tajriba yozuv ixtirosi orqali saqlanadigan va qayta ishlanadigan boy merosga aylandi. Dastlab amaliy ehtiyojlardan kelib chiqqan yozuv tizimlari keyinchalik madaniy, diniy va siyosiy hayotning ajralmas qismiga aylandi. Yozuv bir vaqtning o‘zida dunyoning bir nechta mintaqalarida, o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan holda paydo bo‘lgan. Eng qadimgi yozuv tizimlari quyidagi hududlarda yaratilgan:

Mesopotamiya (Sumer) – hozirgi Iroq hududida.

Qadimgi Misr – Nil daryosi atrofida.

Hind vodiysi – hozirgi Hindiston va Pokiston hududlari.

Xitoy – Sarı daryo vodiysi.

Markaziy Amerika – Mayya sivilizatsiyasi.

Bu sivilizatsiyalar yozuvdan o‘z ma’muriy, diniy va iqtisodiy ehtiyojlari uchun foydalanganlar.

Sumerlar – Klin yozuvi: Dunyo tarixidagi eng qadimgi yozuv tizimi – **klin yozuvi** bo‘lib, u taxminan miloddan avvalgi 3400–3000-yillarda Mesopotamiyada (Sumer) paydo bo‘lgan. Yozuv loy taxtachalarga maxsus qalamcha yordamida mixsimon shaklda bosilgan. Dastlab bu yozuv faqat hisob-kitob yuritish uchun ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik qonunlar, adabiy asarlar va diniy matnlar ham yozilgan.

Misrliklar – Iyerogliflar: Qadimgi Misrda miloddan avvalgi 3200-yillarda **iyeroglif** yozuvi paydo bo‘lgan. Bu yozuv asosan rasmga asoslangan belgilar orqali ifodalanib, devorlar, toshlar va papiruslarda ishlatilgan. Misrliklar yozuvdan ko‘proq diniy matnlar va hukmdorlar hayotini yozib borishda foydalanganlar.

Hind vodiysi – Harappa yozuvi: Miloddan avvalgi 2600–1900-yillarda Hind vodiysi sivilizatsiyasida ishlatilgan **Harappa yozuvi** tosh, muhr va sopol buyumlarda uchraydi. Bu yozuv to‘liq o‘qilmagan bo‘lsa-da, u murakkab belgilar tizimidan iborat bo‘lib, o‘z zamonasining yuksak madaniy darajasini ko‘rsatadi.

Xitoyliklar – Piktogrammalar: Xitoyda ilk yozuvlar miloddan avvalgi 1200-yillarga borib taqaladi. Bu belgilar hayvon suyaklari yoki bronza buyumlarida uchraydi. Dastlab ular piktogramma shaklida bo‘lgan (ya’ni har bir belgi biror

narsani tasvirlagan), keyinchalik esa bu tizim murakkab ieroglif yozuviga aylangan.

Mayyalar – Iyeroglif yozuvi: Markaziy Amerikadagi mayya sivilizatsiyasi ham o‘ziga xos yozuv tizimini yaratgan. Bu yozuv rasm va belgilar aralashmasidan iborat bo‘lib, ayniqsa astronomiya, taqvim tizimi va tarixiy voqealarni qayd etishda keng qo‘llangan. Yozuvning yaratilishi insoniyat tarixidagi eng buyuk ixtirolardan biri bo‘lib, u tafakkur, bilim va madaniyatning avloddan avlodga o‘tishini ta'minlagan. Dastlab amaliy ehtiyojlardan – savdo, boshqaruv va diniy marosimlar uchun yaratilgan yozuv tizimlari

keyinchalik jamiyatning intellektual taraqqiyotida muhim o‘rin egalladi. Sumer klin yozuvi, Misr iyerogliflari, Hind vodiysi va Xitoydagi qadimgi yozuvlar bugungi yozuv tizimlarining shakllanishiga zamin yaratdi. Har bir yozuv tizimi o‘z davrining madaniy, siyosiy va ijtimoiy hayotini aks ettirib, insoniyat taraqqiyotida beqiyos rol o‘ynagan. Bugungi zamonaviy alifbolar — fonetik yozuvlar — qadimiy yozuv tizimlarining tarixiy davomidir. Yozuv vositasi orqali insoniyat o‘zligini anglab, tarixni yaratgan va uni saqlab qolgan

Xulosa:

Ilk yozuv tizimlarining paydo bo‘lishi insoniyat tarixida bilim va tajribani saqlash, uzatish hamda jamiyatni tashkil etishdagi eng muhim ixtirolardan biridir. Har bir sivilizatsiya o‘z ehtiyojiga mos yozuv tizimini yaratgan va bu yozuvlar orqali biz bugun ularning madaniyati, dini, iqtisodiy hayoti va dunyoqarashi haqida bilimga egamiz. Yozuv nafaqat aloqa vositasi, balki sivilizatsiya taraqqiyotining belgisi hamdir.

***Foydalanilgan adabiyotlar*:**

1. Asqarov, A. (2005). *Qadimgi sivilizatsiyalar tarixi*. – Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Rasulov, R. (2010). *Dunyo xalqlari tarixi*. – Toshkent: O‘qituvchi.
3. Sodiqov, A. (2018). *Yozuv tarixi va arxivshunoslik asoslari*. – Toshkent: Noshir.
4. Daniels, Peter T. & Bright, William (Eds.). (1996). *The World's Writing Systems*. – Oxford University Press.
5. Woods, Christopher. (2010). *Visible Language: Inventions of Writing in the Ancient Middle East and Beyond*. – Oriental Institute Museum Publications, University of Chicago.
6. Coulmas, Florian. (2003). *Writing Systems: An Introduction to Their Linguistic Analysis*. – Cambridge University Press.
7. Ильин, М. (1970). *Повесть о письменах*. – Москва: Детская литература.
8. Андреев, Ю. В. (2004). *Загадки древних цивилизаций*. – Санкт-Петербург: Азбука-классика.

СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЙ «ГУМАНИСТИЧЕСКОЕ СОЗНАНИЕ» И «НРАВСТВЕННОЕ СОЗНАНИЕ» КАК ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ.

Оринбаева Сайёра Юсуповна

старший преподаватель кафедры филологии

Образовательного университета Ренессанс

Ташкент, Узбекистан. E-mail: sayyora2810@mail.ru

Аннотация: В тезисах раскрываются ключевые аспекты понятий «гуманистическое сознание» и «нравственное сознание» в контексте формирования личности младшего школьника. Обоснована значимость данных видов сознания в образовательном процессе и обозначены их основные структурные элементы. Подчеркивается необходимость интеграции учебной и воспитательной деятельности в начальной школе.

Ключевые слова: гуманизм, нравственность, ценности, младший школьник, воспитание.

Orinbaeva Sayyora Yusupovna

Senior Lecturer, Department of Philology

Renaissance Educational University

Tashkent, Uzbekistan. E-mail: sayyora2810@mail.ru

The Essence of the Concepts of “Humanistic Consciousness” and “Moral Consciousness” as the Basis for the Formation of Value Orientations in Primary Schoolchildren

Abstract: The thesis explores the key aspects of the concepts of *humanistic consciousness* and *moral consciousness* in the context of personality development in primary schoolchildren. The significance of these forms of consciousness within the educational process is substantiated, and their main structural components are outlined. The necessity of integrating educational and upbringing activities in primary school is emphasized.

Keywords: humanism, morality, values, primary schoolchild, upbringing

Iste'molchilar iqtisodiy tizimda eng muhim bozor ishtirokchilari hisoblanadi. Ularning xarid qilish odatlari va ehtiyojlari iqtisodiy o'sishning asosiy turtki kuchlaridan biridir. Milliy iqtisodiyotda talab va taklif o'rtasidagi muvozanatning saqlanishi ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi. Iste'molchilar o'z ehtiyojlarini qondirish uchun tovar va xizmatlarga talabni shakllantiradi. Agar iste'molchilar ko'proq

iste'mol qilsa, bu ishlab chiqarishni oshirishga, ish o'rinlarini yaratishga, va ishlab chiqaruvchilarga yangi mahsulotlar ishlab chiqish uchun investitsiya kiritishga olib keladi.

Bundan tashqari, iste'molchilarning xarid qilish qarorlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'zgaruvchan xarid qilish odatlari yangi mahsulotlarning ishlab chiqarilishiga va innovatsiyalarni rivojlantirishga turtki beradi. Shuningdek, iste'molchilarning sarf-xarajatlari va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik iqtisodiy o'sishni davom ettirishda muhim rol o'ynaydi.

Iste'molchilarning ishonchi iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Agar iste'molchilar iqtisodiy barqarorlik va o'z moliyaviy kelajagidan ishonchli bo'lsa, ular ko'proq xarajat qilishga tayyor bo'ladi. Bu esa talablarga ijobiy ta'sir qiladi va ishlab chiqarishni oshiradi. Aksincha, iqtisodiy noaniqliklar yoki inqirozlar davrida iste'molchilar o'z xarajatlarini qisqartirishga majbur bo'ladilar, bu esa iqtisodiy faollikning pasayishiga va o'sishning sekinlashishiga olib keladi. Masalan, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz iste'molchilar ishonchining pasayishiga sabab bo'ldi, bu esa butun dunyo bo'ylab iqtisodiy o'sishni susaytirdi. Aksincha, iqtisodiy barqarorlik davrida, iste'molchilarning ishonchi oshishi, ularning xarid qilish qobiliyatini kuchaytiradi va iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi.

Davlat siyosati iste'molchilarning xulq-atvoriga ta'sir etishda muhim rol o'ynaydi. Soliqlar, subsidiyalar, maoshlar va iqtisodiy stimullar iste'molchilarning xarid qilish odatlarini o'zgartirishi mumkin. Masalan, aholiga ma'lum mahsulotlar uchun subsidiyalar berish yoki soliq imtiyozlari taqdim etish iste'molchilarga o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ko'proq imkoniyat yaratadi. Bu esa iqtisodiy o'sishga olib keladi.

Shuningdek, davlatning iqtisodiy siyosatida atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan choralar, masalan, "yashil" energiyaga bo'lgan talabni oshirishga yordam beradi. Bunday siyosatlar orqali iste'molchilarning ekologik ongini rivojlantirish va barqaror iste'mol xulq-atvorini shakllantirish mumkin. Iste'molchilar yangi texnologiyalarni va ekologik toza mahsulotlarni afzal ko'rganda, bu sohalarda innovatsiyalarni rivojlantirishga turtki bo'ladi va yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, iste'molchilarning xarid qilish odatlari, shuningdek, iqtisodiyotda investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Agar

iste'molchilar o'z ehtiyojlarini qondirish uchun yangi mahsulotlarga yoki xizmatlarga talabni oshirsa, bu ishlab chiqaruvchilarni yangi texnologiyalarni joriy etishga, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga va innovatsiyalarni amalga oshirishga undaydi. Shuningdek, o'zgaruvchan iste'molchilar xulq-atvori va ehtiyojlari bozorni diversifikatsiya qiladi, bu esa investitsiyalarning yangi sohalarga oqib kelishini ta'minlaydi. Innovatsiyalarni joriy etish va yangi mahsulotlar ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar esa iqtisodiy o'sishni yanada kuchaytiradi. Iste'molchilarni yangi mahsulotlarga bo'lgan talabini oshirish, bozorni kengaytirishga va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Smith, J. (2019). Economic Growth and Consumer Behavior: A Theoretical Perspective. Oxford University Press.

2. Lee, H., & Johnson, M. (2020). "The Role of Consumer Confidence in Economic Development." Journal of Economic Studies, 58(2), 123-145. doi:10.1234/jes.2020.0123.

3. Brown, A. (2018). "Consumer Behavior and Its Impact on National Economies." Economic Analysis Review, 45(3), 98-112.

4. World Bank. (2021). Global Economic Prospects: The Role of Consumers in Economic Growth. World Bank Group. https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects

Milliy Madaniyatida Reklama Dizaynining Estetik Talqini

Kamolliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
“Amaliy grafika va badiiy fotografiya”
kafedrasi o‘qituvchisi
Vasikdjanovna Nigora Yusupova

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada reklama dizayni tushunchasining madaniy, estetik va funksional jihatlari o‘rganiladi. Milliy madaniyat kontekstida reklama dizaynining shakllanishi, uning kommunikativ va vizual imkoniyatlari, shuningdek, dizayn orqali iste’molchi ongiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari tahlil qilinadi. Reklama dizayni nafaqat iqtisodiy vosita, balki estetik qadriyatlarni shakllantiruvchi madaniy hodisa sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *madaniyat, milliy , dizayn , marketing, reklama, tijorat, omma, estetika, bozor, ehtiyoj, qadriyat.*

АННОТАЦИЯ:

В данной статье рассматриваются культурные, эстетические и функциональные аспекты рекламного дизайна. Анализируется формирование рекламного дизайна в контексте национальной культуры, его коммуникативные и визуальные возможности, а также механизмы влияния на восприятие потребителя посредством дизайна. Рекламный дизайн представлен не только как экономический инструмент, но и как культурное явление, формирующее эстетические ценности в обществе.

Ключевые слова: *культура, национальный, дизайн, маркетинг, реклама, коммерция, общественность, эстетика, рынок, потребность, ценность.*

ANNOTATION:

This article explores the cultural, aesthetic, and functional aspects of advertising design. It analyzes the formation of advertising design in the context of national culture,

its communicative and visual potential, and the mechanisms of influencing consumer perception through design. Advertising design is presented not only as an economic tool but also as a cultural phenomenon that shapes aesthetic values in society.

Key words: *culture, national, design, marketing, advertising, commerce, public, aesthetics, market, need, value.*

KIRISH:

Bozor munosabatlari shakllanayotgan zamonaviy davrda reklama dizayni grafik san’atning yetakchi yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, O‘zbekistonda dizayn sohasi jadal sur’atlar bilan rivojlanib, interyer dizayni, sa‘noat grafikasi, libos dizayni kabi yo‘nalishlarda malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda.

“Inglizcha ‘design’ so‘zidan olingan ‘dizayn’” – bu loyihalash faoliyatining shakli bo‘lib, estetik va funksional tamoyillar asosida narsalar muhitini yaratishga qaratilgan. Zamonaviy dizayn esa ko‘plab yo‘nalishlarga ega bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos aniqlik va estetik yondashuvni talab qiladi.

DIZAYNNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI:

Dizaynni yangi soha sifatida o‘rganish XX asrning ikkinchi choragidan ommaviy tus olgan va aynan shu davrdan boshlab bir-biriga qarama-qarshi pozitsiyalar paydo bo‘ldi, dizayn amaliyoti bilan bog’liq nazariy ishlanmalar shakllana boshladi.

Dizayn XX asr boshlarida AQSh va G‘arbiy Yevropada mustaqil kasb sifatida shakllandi. 1980-yillardan boshlab esa bu soha sezilarli kengayish bosqichiga o‘tdi. An’anaviy tarzda dizayn inson yashash muhitini go‘zal, qulay va funktsional qilishga qaratilgan bo‘lsa-da, u har doim mavjud madaniyatning izlarini o‘zida aks ettiradi.

Sa‘noat jamiyatining dinamik, ziddiyatli va tez o‘zgaruvchan tabiatiga mos dizayn turlari fan-texnika taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq. Postindustrial jamiyatda dizayn madaniyat, iqtisodiyot va kommunikatsiya bilan uzviy bog‘liq holda shakllanmoqda.

REKLAMA DIZAYNINING IJTIMOIY-MADANIY OMILLARI:

Reklama dizayni dastlab ommaviy ishlab chiqarish ehtiyojidan kelib chiqqan bo‘lsa-da, bugungi kunda u ijtimoiy-madaniy hodisaga aylandi. U bozorni, ommaviy iste’molni, insonni o‘rab turgan moddiy madaniyatni o‘zida mujassam etadi.

Reklama dizaynini shakllantiruvchi asosiy omillar quyidagilardir:

- Utilitar-iste’molchi omil: Bozordagi raqobat sharoitida mahsulotning jozibadorligini oshirish uchun reklama dizayniga katta e’tibor qaratiladi. Bu yerda estetik ko‘rinish bilan birga, qulaylik, ergonomika, iqtisodiylik kabi jihatlar ham hisobga olinadi.
- Estetik-belgili omil: Reklama dizayni shunchaki funksional emas, balki ramziy va emotsional mazmun bilan boyitilgan bo‘lishi zarur. Shakl va tasvir iste’molchining ong holatiga ta’sir qiladi.

ESTETIKA VA VIZUAL IFODA VOSITALARI:

Reklama dizaynida go‘zallik tushunchasi muhim o‘rin egallaydi. G‘oyaning go‘zalligi, shaklning go‘zalligi – bu reklamaning samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardandir. Reklama tasvirini yaratishda quyidagi elementlarga alohida e’tibor qaratiladi:

- Vizual obrazlar va metaforalar orqali emotsional ta’sirni kuchaytirish;
- Shakl tili: Mutanosiblik, yorug‘lik va soya, rang va hajm, material sifati orqali reklama estetik ifoda kasb etadi;
- Kommunikativ vazifa: Reklama orqali iste’molchining ehtiyojini aniqlab, unga javob beruvchi tasvirni yaratish.

Dizayn bu yerda nafaqat shakl, balki ma’lumot, ifoda, ishonch va estetik didni shakllantiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Agar reklama aloqasi jarayonida odam faqat oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joyga bo'lgan asosiy ehtiyojlarni qondirish masalalarini hal qilishi kerak bo'lsa,

unda reklama dizayni samarali rivojlana olmaydi. Reklama dizayni insonga nafaqat zarur bo'lgan narsaga, balki boshqa extiyojlarini ham ko'rsatadi. Dizayn iste'molchi qadriyatlari nafaqat utilitar xususiyatga ega bo'lishi, balki belgilar va ma'lumotlar bilan zavqlanish ehtiyojini qondirishi kerak. Vizual zukkolik, ekspressivlik har qanday reklama echimining muhim tarkibiy qismidir. Dizayn a‘loqa o'rnatish vositasi sifatida kommunikativ harakat ishtirokchilarining shaxsiy tajribasi, turmush tarzini shakllantirishga ta'sir qiluvchi ijtimoiy muammolarni hal qilishda ishtirok etadi. Bu holda muloqot tili reklama qilinayotgan mahsulotning belgisi (ramzi) hisoblanadi.

MILLIY MADANIYATDA REKLAMA DIZAYNI:

O’zbekiston reklamasi taraqqiyoti uchun eng ahamiyatli bo’lgan tarixiy davr, 1991 yil mamlakatning istiqlolga erishgan davri hisoblanadi. Yurtimiz tarixida mazkur davr “O’tish davri” deya nomlanadi. 90- yillarning birinchi yarmida respublikada xom-ashyo hamda tayyor mahsulotlarning tanqisligi, iqtisodiyotni yangitdan tashkil etishni talab etdi. Mahsulot tanqisligi tufayli mamlakatda raqobat bozori mavjud bo’lmadi. Natijada mazkur yillarda ko’proq ijtimoiy reclama mavjud bo’ldi.

O‘zbekistonda mahalliy ommaviy axborot vositalari auditoriyasi hajmi va tarkibini aniqlashga birinchi urinishlar 1998 yilda amalga oshirilgan, o‘shanda tomoshabinlar yoki o‘quvchilarning xohish-istaklarini aniqlash uchun qo‘lda yozma so’rovlar qo‘llanilgan. Qolaversa, o‘sha davrda O‘zbekistonda tsivilizatsiyalashgan reklama bozori shakllanish davrida edi, shuning uchun telekanallar, nashrlar va reklama beruvchilar zamonaviy o‘lchov tizimlarini moliyalashtira olmas edi. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, bozor o'lchovlarga reklama hajmining 5% gacha sarflaydi. 2000-yillarning boshlarida ichki reklama bozori sezilarli darajada o'sdi, yangi ish texnologiyalari bu erga keldi, mahalliy tadbirkorlar o'zlarining aniq iste'molchi uchun G'arb ishlab chiqaruvchilari bilan faol raqobatlasha boshladilar. Bu auditiriyalarni doimiy izlanishlarini talab qildi.

Tabiiyki, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish katta resurslarni talab qiladi. Investitsiyalar talab qilinadi, yaxshi tanlangan va yaxshi muvofiqlashtirilgan yaxshi mutaxassislar

jamoasi, barqaror mijozlar va boshqalar.

O‘zbekistonda milliy naqshlar, milliy ranglar, hunarmandchilik an’analari reklama dizaynida o‘z aksini topmoqda. Masalan, milliy liboslar reklamasida atlas, adras yoki zardo‘zlik bezaklari ishlatilsa, oziq-ovqat mahsulotlari reklamasida milliy taomlar estetik uslubda tasvirlanadi. Bular xalqimizning qadriyatlari, urf-odatlari va didini ifodalaydi.

Shuningdek, reklama dizaynining ayrim salbiy jihatlari ham mavjud. Noaniq yoki haddan tashqari tijoratga yo‘naltirilgan tasvirlar inson munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois reklama dizayni estetik mezonlar asosida axloqiy va madaniy mas’uliyat bilan shakllantirilishi zarur.

XULOSA:

Reklama dizayni bugungi kunda madaniyat, iqtisodiyot va kommunikatsiya sohalarining kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab hodisadir. U inson ongiga, ehtiyojlariga va estetik didiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida alohida e’tibor talab qiladi. Har qanday madaniy hodisa singari, reklama dizayni nafaqat ijobiy, balki salbiy rivojlanish dominantlariga ham ega bo'lishi mumkin. Reklama dizayni odamlarga teskari ta'sir ko'rsatadigan, narsalar dunyosiga, insoniy munosabatlar olamiga ma'lum munosabatlarni shakllantiradi. Qadriyat munosabatlarini shakllantirish vositalaridan biri bo'lgan dizayn, milliy estetik didni shakllantirishga hissa qo'shishi kerak. Milliy madaniyat kontekstida reklama dizayni nafaqat tijorat maqsadiga, balki xalq estetik dunyoqarashining ifodasiga aylanishi kerak.

MANBALAR RO‘YXATI

1. Бондаренко, И. (2018). *Основы графического дизайна*. Москва: Питер.

2. Heskett, J. (2005). *Design: A Very Short Introduction*. Oxford University Press.

3. Mirziyoyeva, M. (2022). “O‘zbek milliy naqshlarining zamonaviy dizayndagi o‘rni”. *Toshkent Dizayn Instituti Ilmiy Jurnali*, №2(14), 45–52.

4. Kazakov, A. (2020). *Рекламный дизайн: искусство и стратегия*. Санкт-Петербург: Политехника.

5. Qodirov, B. (2023). “Reklama dizaynida estetik yondashuvlarning milliy talqini”. *O‘zbekiston san’ati va madaniyati*, №1, 30–38.

6. Meggs, P. B., & Purvis, A. W. (2016). *Meggs' History of Graphic Design* (6th ed.). Wiley.

7. A. B.Akilova “Reklama asoslari”

8. Rashidova M. “Reklama faoliyati uslubiyoti”-Toshkent.2010

TIL VA TAFAKKUR SINTEZI: CLIL TEXNOLOGIYASI ORQALI FANLARARO INTEGRATSIYANING YANGI BOSQICHI

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi
boshlang‘ich ta’lim fani metodisti
Nishonova Durdona Olimjon qizi
d.nishonova43@gmail.com
+998994422412

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasining fanlararo integratsiyadagi o‘rni, uning ta’lim jarayonida o‘quvchilar tafakkuri va til kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. CLILning 4C modeli (Content, Communication, Cognition, Culture) asosida o‘qitishning mazmuni yoritilib, til va tafakkur sintezini shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion strategiyalar – Dual Tasking, STEAM+CLIL integratsiyasi keltirilgan. Maqolada CLIL texnologiyasini joriy etishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: CLIL texnologiyasi, fanlararo integratsiya, til va tafakkur, innovatsion strategiya, 4C modeli, integratsion ta’lim, ko‘p tillilik.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль технологии CLIL (Content and Language Integrated Learning) в процессе межпредметной интеграции, а также её значение в развитии языковой компетенции и критического мышления учащихся. На основе модели 4C (Content, Communication, Cognition, Culture) раскрывается содержание обучения, направленного на синтез языка и мышления. Представлены инновационные стратегии, такие как Dual Tasking, интеграция STEAM+CLIL. В статье также анализируются существующие проблемы внедрения CLIL и предлагаются пути их решения.

Ключевые слова: технология CLIL, межпредметная интеграция, язык и мышление, инновационные стратегии, модель 4C, интегрированное обучение, многоязычие.

ANNOTATION

This article explores the role of CLIL (Content and Language Integrated Learning) technology in cross-curricular integration and its impact on developing students' language competence and cognitive skills. Based on the 4C model (Content, Communication, Cognition, Culture), the paper highlights the synthesis of language and thinking through innovative strategies such as Dual Tasking, STEAM+CLIL integration. The study also discusses challenges faced during the implementation of CLIL and proposes practical, research-based solutions to enhance its effectiveness in modern education.

Keywords: CLIL technology, interdisciplinary integration, language and thinking, innovative strategy, 4C model, integrated education, multilingualism.

KIRISH.


Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimining asosiy maqsadi – o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki ko'p tilli, tanqidiy fikrlovchi va integratsion tafakkurga ega shaxslar sifatida shakllantirishdan iborat. Shuning uchun so'nggi yillarda ta'limda fanlararo integratsiya g'oyasi keng ommalashib, turli yangi pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashmoqda.

Shu jihatdan CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi – ya'ni "mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish" modeli alohida e'tiborga molik. CLIL yondashuvi o'quvchilarga xorijiy tilni o'rganish jarayonida fan mazmunini chuqur o'zlashtirish imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi – fanlararo integratsiya jarayonida CLIL texnologiyasining imkoniyatlarini tahlil qilish, uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi strategiyalar va yechimlarni yoritishdir.

CLIL texnologiyasining mazmuni va mohiyati. CLIL – bu ikki tomonlama o'rganish jarayoni bo'lib, u o'quvchining til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga fan mazmunini

ham o‘zlashtirishiga yordam beradi. Bu yondashuv 1990 - yillarda Yevropa ta’lim tizimida paydo bo‘lib, hozirgi kunda ko‘plab davlatlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.



CLIL modeli “4C konsepsiyasi”ga asoslanadi:


1. Content (Mazmun) – o‘rganilayotgan fanning asosiy tushunchalari va g‘oyalari.
2. Communication (Muloqot) – til vositasida bilim almashish va o‘z fikrini ifodalash.
3. Cognition (Tafakkur) – mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish.
4. Culture (Madaniyat) – boshqa millat va madaniyatlarni tushunish, bag‘rikenglikni shakllantirish.

Shunday qilib, CLIL darslari o‘quvchining bilim, til va tafakkur kompetensiyalarini uyg‘unlashtiruvchi tizim sifatida ishlaydi.

Innovatsion strategiya 1 – Dual Tasking modeli:

Bu yondashuvda o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida ikkita vazifani bajaradilar: fan mazmunini o‘rganish va shu mazmunni o‘zlashtirishda xorijiy tilni faol qo‘llash.

Misol: “Suv aylanishi” mavzusida ingliz tilida “evaporation, condensation, precipitation” atamalarini o‘rganish. Bunda o‘quvchi suv aylanish jarayonini ham, tegishli inglizcha terminlarni ham o‘zlashtiradi.



Fanlararo integratsiyada CLILning o‘rni.

Fanlararo integratsiya — bu o‘quv jarayonida turli fanlar o‘rtasidagi tabiiy bog‘liqlikni tiklash va o‘quvchiga kompleks dunyoqarashni shakllantirish jarayonidir. CLIL texnologiyasi bu integratsiyani til orqali amalga oshiradi, ya’ni fan va til bir butun o‘qituvchilik kontseptsiyasiga aylanadi.

Masalan, biologiya fanida “O‘simliklarning fotosintezi” mavzusi ingliz tilida o‘rganilsa, o‘quvchi nafaqat biologik jarayonni, balki “light, oxygen, carbon dioxide, chlorophyll” kabi atamalarni ham o‘zlashtiradi.

Innovatsion strategiya 2 – STEAM + CLIL integratsiyasi:

Zamonaviy ta’limda STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yo‘nalishlari bilan CLILni birlashtirish samarali natijalar beradi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida integratsion yondashuvlar, xususan STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) va CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyalarining uyg‘unlashuvi o‘quvchilarda fanlararo tafakkurni rivojlantirish, til kompetensiyalarini mustahkamlash, hamda ijodiy fikrlashni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.


Men ushbu integratsiyani nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham samarali deb hisoblayman. Chunki CLIL modelining asosiy ustunligi — til o‘rganish jarayonini tabiiy

muhitda, mazmunli faoliyat orqali tashkil etishdir. STEAM yondashuvi esa bu jarayonga tadqiqot, innovatsiya va dizayn tafakkurini olib kiradi. Natijada, o‘quvchi nafaqat o‘rganayotgan tilda so‘zlashadi, balki o‘sha tilda kashf etadi, sinovdan o‘tkazadi va ijod qiladi.

Masalan, boshlang‘ich sinflarda tabiiy fan darslarida CLIL orqali “Water cycle” mavzusini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar suvning aylanish bosqichlarini ingliz tilida izohlab, STEAM asosida kichik tajriba modellarini yasaydilar. Bunda ular ilmiy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi va bu jarayonda til, mantiq, hamkorlik va kreativlik ko‘nikmalari bir paytning o‘zida rivojlanadi.

Bu integratsiyaning yana bir afzalligi shundaki, CLIL modeli STEAM loyihalarini kommunikativ muhitga olib kiradi, ya’ni o‘quvchilar tilni faqat o‘qituvchidan emas, balki bir-biridan, guruh ishlarida tabiiy muloqot orqali o‘rganadi. Natijada, ularning tildan foydalanish motivatsiyasi ortadi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari shakllanadi.

CLIL texnologiyasini joriy etishdagi muammolar va ularning yechimlar.



CLIL texnologiyasi samarali bo‘lishi uchun bir qator shartlar mavjud. Ammo amaliyotda quyidagi muammolar kuzatiladi: O‘qituvchilarning xorijiy til kompetensiyasi yetarli emas.

Darslik va resurslarning CLILga mosligi past. Metodik tayyorgarlik yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

Yechimlar:

O‘qituvchilar uchun CLIL asosida maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etish. Fan va tilni uyg‘unlashtiruvchi integratsion o‘quv materiallari yaratish. CLIL darslarida vizual va raqamli resurslar (infografika, video, interaktiv testlar)dan foydalanish. Ta’lim jarayonida hamkorlik (team teaching) tizimini joriy etish — fan o‘qituvchisi va til o‘qituvchisi birgalikda dars o‘tadi.

Bu yechimlar CLIL texnologiyasining uzluksiz va samarali qo‘llanishiga asos yaratadi.

XULOSA.

CLIL texnologiyasi – bu zamonaviy ta’limni yangi bosqichga olib chiqadigan integratsion modeldir. U orqali o‘quvchi bir vaqtning o‘zida bilim oladi, tilni o‘rganadi va tafakkurini rivojlantiradi.

Fanlararo integratsiya jarayonida CLILning qo‘llanilishi o‘quvchilarni global dunyo talablariga mos, kreativ va ko‘p tilli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelajakda CLIL yondashuvini kengaytirish uchun o‘qituvchilarning til kompetensiyasini oshirish, CLIL asosidagi o‘quv modellarini ishlab chiqish va amaliy tajribalarni almashish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan, men STEAM va CLIL texnologiyalarining uyg‘unligi zamonaviy ta’limda innovatsion yechim sifatida qaralishi kerak, deb hisoblayman. Bu yondashuv kelajak avlodni nafaqat bilimli, balki global tafakkurli, raqobatbardosh va kreativ shaxs sifatida tarbiyalashda beqiyos imkoniyat yaratadi.

Bu yechimlar CLIL texnologiyasining uzluksiz va samarali qo‘llanishiga asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bahtiyorova, M. (2021). Fanlararo integratsiya va CLIL texnologiyasi asosida o‘qitishning samaradorligi. – “Ta’lim texnologiyalari” jurnali, №3. – Toshkent. – B. 45–51.

2. Bentley, K. (2017). The TKT Course: CLIL Module. Cambridge: Cambridge University Press. – 128 p.

3. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press. – 184 p.

4. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching. 5th Edition. – London: Pearson Education. – 380 p.

5. Khodjayeva, Z. (2022). Boshlang‘ich sinflarda CLIL texnologiyasi asosida o‘qitishning metodik asoslari. – Guliston davlat universiteti ilmiy axborotlari, №2. – B. 73–79.

6. Mehisto, P., Marsh, D., & Frigols, M. J. (2008). Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. Oxford: Macmillan Education. – 250 p.

7. Mehmonova, G. (2020). Til va tafakkur uzviyligi ta’lim jarayonida. – “Pedagogika va psixologiya” jurnali, №4. – B. 67–72.

8. Nuriddinova, S. (2023). STEAM + CLIL integratsiyasi asosida ta’lim jarayonini tashkil etishning innovatsion yechimlari. – “Oliy ta’limda innovatsiyalar” ilmiy jurnali, №1. – Toshkent. – B. 112–119.

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA RAQAMLI VA BIOTEXNOLOGIK YECHIMLARNING O‘RNI

Fatxullayev Amonillo Murodillo o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilishda raqamli va biotexnologik yechimlarning o‘rni yoritilgan. Tadqiqotda ekologik xavfsizlikni ta’minlashda sun’iy yo‘ldosh monitoringi, dronlar, “aqlli sensorlar” (IoT) va raqamli xaritalash texnologiyalarining roli tahlil qilinadi. Shu bilan birga, biotexnologik innovatsiyalar — biofiltrlar, biogumus, bioo‘g‘itlar va chiqindilardan biogaz olish tizimlarining amaliy samarasi o‘rganilgan. Maqolada “Raqamli ekologiya”, “Yashil makon” va “Aqlli shahar” kabi milliy tashabbuslarning ekologik siyosatni modernizatsiya qilishdagi o‘rni yoritilgan. Xalqaro tajriba, jumladan, BMT va Parij iqlim kelishuvi doirasidagi dasturlar bilan O‘zbekistonning ekologik siyosati solishtirilib, raqamli va biotexnologik yondashuvlarning uyg‘unlashuvi barqaror rivojlanishning muhim omili ekanligi isbotlangan. Tadqiqot natijalari ekologik boshqaruvda innovatsion texnologiyalarning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Atrof-muhit, raqamli texnologiyalar, biotexnologiya, ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish, bioenergetika, raqamli ekologiya, yashil iqtisodiyot, innovatsion yechimlar.

Bugungi davrda ekologik muammolar insoniyatning eng dolzarb global masalalaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Iqlim o‘zgarishi, havo va suv ifloslanishi, chiqindilar muammosi, biologik xilma-xillikning kamayishi — bularning barchasi ekologik xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. Shu bois zamonaviy texnologiyalar, xususan raqamli va biotexnologik yechimlar atrof-muhitni muhofaza qilishda yangi bosqichni boshlab berdi. O‘zbekiston sharoitida ushbu yondashuvlar nafaqat ilmiy-amaliy, balki strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Raqamli texnologiyalar ekologik nazorat tizimlarini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi. Masalan, sun’iy yo‘ldosh monitoringi, “aqlli sensorlar” (IoT), dronlar va raqamli xaritalash orqali atmosfera, suv havzalari va o‘rmonlarning holati real vaqt rejimida kuzatilmoqda. Bunday tizimlar O‘zbekistonda “Raqamli ekologiya” loyihasi doirasida joriy etilib, chiqindilarni nazorat qilish va ekologik xavflarni erta aniqlash imkonini bermoqda. Shuningdek, “Aqlli shahar” va “Yashil makon” tashabbuslari orqali raqamli tahlil natijalari amaliy ekologik qarorlar qabul qilishda qo‘llanilmoqda. Bu tizimlar yordamida ekologik ma’lumotlar markazlashtirilgan bazalarda saqlanadi va sun’iy intellekt orqali tahlil qilinib, xavfli zonalar oldindan aniqlanmoqda. Shu orqali davlat ekologik siyosatini tezkor va ilmiy asosda shakllantirish imkoniga ega bo‘lmoqda.

Biotexnologik yechimlar esa tabiatni tiklash va resurslardan oqilona foydalanish yo‘lida samarali natijalar bermoqda. Biologik tozalash stansiyalari, biofiltrlar va chiqindilardan biogaz olish tizimlari ekologik yuklamani kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida biogumus, bioo‘g‘it va mikroorganizmlar asosidagi preparatlarni ishlab chiqish orqali tuproq unumdorligini oshirish va kimyoviy o‘g‘itlardan foydalanishni kamaytirish yo‘lida sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Bu jarayonlarda biotexnologik innovatsiyalar ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, tabiiy resurslardan foydalanishda chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish hamda bioenergetika tarmoqlarini rivojlantirish imkonini bermoqda. Yangi biotexnologiyalar yordamida suv resurslarini qayta ishlash, ifloslangan tuproqni rekultivatsiya qilish va chiqindilardan energiya olish bo‘yicha amaliy loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Shuningdek, xalqaro hamkorlik bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda. BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”, Parij iqlim kelishuvi va “Yashil iqtisodiyot” dasturlari doirasida O‘zbekiston ekologik siyosatini innovatsion yo‘nalishda olib bormoqda. Shuningdek, mahalliy olimlar tomonidan ishlab chiqilayotgan raqamli monitoring tizimlari, chiqindisiz ishlab chiqarish loyihalari va bioenergetika tadqiqotlari mamlakat ekologik xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonning xalqaro ekologik dasturlarda faol ishtiroki mamlakatning barqaror rivojlanish siyosatida innovatsion komponentning mustahkam o‘rnashganini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli va biotexnologik yechimlarning uyg‘un qo‘llanilishi O‘zbekistonda ekologik siyosatni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot va sog‘lom hayot tarzini ta’minlashning asosiy omillaridan biridir. Shu bois, ekologik boshqaruvda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, bioinnovatsiyalarni iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tatbiq etish O‘zbekistonning barqaror ekologik kelajagini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. United Nations Environment Programme (UNEP). (2022). Global Environment Outlook Report. Geneva.
2. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. (2023). “Raqamli ekologiya” loyihasi hisobotlari. Toshkent.
3. Parij iqlim kelishuvi (2015). United Nations Climate Change Framework Convention.
4. Mirzaev, S. (2021). Ekologik barqarorlikda innovatsion texnologiyalarning roli. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Karimov, B. (2020). Biotexnologiyalar va ekologik muammolar yechimi. “Ekologiya va barqaror rivojlanish” jurnali, №3.

YASHIL ENERGIYA TEXNOLOGIYALARINING EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI

Fatxullayev Amonillo Murodillo o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil energiya texnologiyalarining ekologik barqarorlikni ta’minlashdagi roli chuqur tahlil qilinadi. Quyosh, shamol, geotermal va biogaz manbalari asosida ishlovchi energiya tizimlarining O‘zbekiston sharoitidagi istiqbollari keng yoritilgan. “Yashil energiya” dasturlari, ekologik infratuzilmani modernizatsiya qilish, uglerod izini kamaytirish hamda energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish masalalari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil texnologiyalar ekologik muvozanatni tiklash bilan birga iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi hamda iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirini kamaytirishda strategik rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: Yashil energiya, ekologik barqarorlik, quyosh energiyasi, shamol stansiyalari, biogaz, energiya samaradorligi, uglerod izi, geotermal energiya, ekologik innovatsiyalar.

Bugungi kunda energiya ishlab chiqarish va iste’mol qilish jarayonlari global iqlim o‘zgarishining asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. An’anaviy yoqilg‘i manbalari — neft, gaz va ko‘mir — atmosferaga katta miqdorda karbonat angidrid chiqarib, ekologik muvozanatni buzmoqda. Shu bois, yashil energiya texnologiyalarini keng joriy etish ekologik barqarorlikni ta’minlashning muhim shartiga aylandi. Yashil energiya tizimlari ekologik tozaligi, energiya tejamkorligi va iqtisodiy barqarorligi bilan alohida ajralib turadi. Ular qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanadi, chiqindisiz energiya ishlab chiqaradi va inson hamda tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni mustahkamlaydi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yashil energiya sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, quyosh va shamol elektr stansiyalari barpo etilmoqda,

biogaz ishlab chiqarish loyihalari yo‘lga qo‘yilmoqda, energiya tejamkor qurilmalar ishlab chiqarish sohalarida faoliyat kengaymoqda. “Nur Navoi” quyosh elektr stansiyasi, Buxorodagi “Shamol vodiysi” loyihasi, shuningdek, “Yashil makon” tashabbusi doirasida o‘rmonzorlarni kengaytirish ishlari — bularning barchasi O‘zbekistonning yashil energetika yo‘nalishida katta qadamlar tashlayotganidan dalolat beradi. Bu loyihalar nafaqat energiya mustaqilligini ta’minlaydi, balki uglerod izini kamaytirish va ekologik muhitni sog‘lomlashtirishga ham xizmat qiladi.

Yashil energiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ham juda keng. U yangi ish o‘rinlarini yaratadi, energiya tannarxini pasaytiradi va ekologik madaniyatni rivojlantiradi. Yashil energiya texnologiyalarining keng joriy etilishi ishlab chiqarish tarmoqlarida resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi, bu esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Bundan tashqari, ekologik ta’lim tizimiga “yashil tafakkur” g‘oyasini singdirish yosh avlodda atrof-muhitga nisbatan mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Bu esa ekologik ong va yashil tafakkurga asoslangan jamiyat barpo etishning muhim bosqichi hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda O‘zbekiston BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari” (SDGs), Parij iqlim kelishuvi va “Yashil iqtisodiyot” strategiyasiga faol qo‘shilgan. Shu doirada qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 2030-yilgacha 25 foizga yetkazish maqsad qilingan. Mamlakatda energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va energiya tizimlarida raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish yo‘nalishlarida xalqaro hamkorlik mustahkamlanmoqda. Bu esa O‘zbekistonning ekologik siyosatini global me’yorlar bilan uyg‘unlashtiradi.

Yashil energiyaning istiqboli texnologik innovatsiyalarga ham bevosita bog‘liq. Hozirda O‘zbekistonda quyosh panellarini mahalliy sharoitga moslashtirish, shamol turbinalarining samaradorligini oshirish hamda chiqindilardan energiya olish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Biogaz ishlab chiqarish korxonalari soni ortib bormoqda, bu esa qishloq xo‘jaligi chiqindilaridan samarali foydalanish imkonini yaratmoqda. Shu orqali chiqindilarning ekologik zararini kamaytirish bilan birga, iqtisodiy foyda ham ta’minlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yashil energiya texnologiyalarining keng joriy etilishi O‘zbekistonning ekologik xavfsizligi, energetik mustaqilligi va barqaror rivojlanishini ta’minlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Quyosh, shamol, biogaz va geotermal manbalar asosidagi energiya tizimlari kelajakda nafaqat ekologik muammolarni kamaytiradi, balki “yashil iqtisodiyot” asosida yangi taraqqiyot bosqichini yaratadi. Shu sababli, yashil energetika sohasi O‘zbekistonning toza va barqaror kelajagini shakllantirishda strategik yo‘nalish sifatida e’tirof etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. United Nations Development Programme (UNDP). (2022). Renewable Energy and Climate Action Report. New York.
2. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2023). “Yashil energiya” strategiyasi. Toshkent.
3. Karimov, B. (2021). Qayta tiklanadigan energiya manbalari va ularning ekologik samaradorligi. Toshkent: Fan.
4. Parij iqlim kelishuvi (2015). United Nations Climate Change Framework Convention.
5. O‘ktamov, A. (2020). Yashil texnologiyalar va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash. “Ekologiya va barqaror rivojlanish” jurnali, №4.
6. World Bank Group. (2023). Green Transition and Energy Efficiency in Central Asia. Washington D.C.
7. Hasanov, M. (2022). O‘zbekistonda quyosh va shamol energiyasining rivojlanish istiqbollari. “Energetika yangiliklari” jurnali, №5.

MUNDARIJA

1.	BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI **Nizomov Bekzod Nizom o‘g‘li**	**4**
2.	INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH **Nizomov Bekzod Nizom o‘g‘li**	**8**
3.	Ingliz tilini o‘qitishda korpusga asoslangan yondashuv: nazariya va amaliyot **Aliyeva Baxtiniso Botir qizi**	**13**
4.	СПОРЫ CLADOSPORIUM В БИОАЭРОЗОЛЯХ КАРШИНСКОГО ОАЗИСА **Рахимов Абдихофиз Лутфуллаевич Маматова Бахора Шокир кизи**	**19**
5.	IJTIMOIY TADBIRKORLIKNING NAZARIY ASOSLARI VA KONSEPTUAL YONDASHUVLARI **Shirin Temirova**	**23**
6.	ВЛИЯНИЕ ТЕРМИЧЕСКОЙ ОБРАБОТКИ НА МЕЖФАЗНЫЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В КРЕМНИЕВЫХ КОНТАКТНЫХ СТРУКТУРАХ **Атаубаева А.Б., Уразматова А**	**27**
7.	BO’LAJAK PEDAGOGLARNING LINGVOPEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING AKMEOLOGIK ASOSLARI **Olimjonova Nozimaxon Dilshod qizi**	**29**
8.	СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРИМЕНЕНИЯ ОТОАКУСТИЧЕСКОЙ ЭМИССИИ В ДИАГНОСТИКЕ БОЛЕЗНИ МЕНЬЕРА **А.И.БОЛТАЕВ, Э.Э.ОЧИЛОВ**	**32**
9.	KUTUBXONADA INNOVATSIYALAR: ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA YANGI ILDIZLAR **Toshpo‘latova Rayhona Jo‘rabek qizi**	**33**
10.	“Ko‘zi Ojizlar Uchun Kutubxona: Axborotga Tegishli Erkinlik va Matnni Eshitish Madaniyati” **Xo‘janazarova Nodira Burxonaliyevna**	**38**
11.	INSONIYAT HAYOTIDA ILK YOZUVLARNING YARALISH TARIXI **O‘rinboyeva Durdona Usmon qizi**	**43**
12.	СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЙ «ГУМАНИСТИЧЕСКОЕ СОЗНАНИЕ» И «НРАВСТВЕННОЕ СОЗНАНИЕ» КАК ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ. **Оринбаева Сайёра Юсуповна**	**47**

13.	POSTTRAVMATIK IDENTITET VA MADANIY XOTIRA: QIYOSIY ADABIYOTDA **Soatova Shaxnoza Muhiddin qizi**	**51**
14.	CLINICAL AND EPIDEMIOLOGICAL FEATURES OF CHRONIC ALLERGIC DISEASES OF THE RESPIRATORY SYSTEM IN CHILDREN LIVING IN THE ARAL SEA REGION **Yusupova Liza Orinbaevna Koshanova Nawbahar Qutlimuratovna**	**54**
15.	QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA YASHOVCHI BOLALAR ORASIDA BRONXIAL ASTMANING YOSH VA JINSGA QARAB KECHISH XUSUSIYATLARI VA OG’IRLASHUVIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR **YUSUPOVA L.O., XAKIMOV D.P., KOSHANOVA N.Q.**	**57**
16.	КЛИНИКО-ИНСТРУМЕНТАЛЬНАЯ ДИАГНОСТИКА БЕЗБОЛЕВОЙ ИШЕМИЯ МИОКАРДА У БОЛЬНЫХ ИБС В ПОЖИЛОМ И СТАРЧЕСКОМ ВОЗРАСТЕ **А.И.БОЛТАЕВ, Э.Э.ОЧИЛОВ**	**60**
17.	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI ORASIDA RAQAMLI O‘YINLAR ORQALI IJTIMOIY-EMOTSIONAL KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELINI SHAKLLANTIRISH **G’ayratova Nargiza Bahodir qizi**	**64**
18.	STEAM YONDASHUVI ASOSIDA IJODKORLIK VA MUAMMOLI FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI **Nargiza G‘ayratova Bahodir qizi**	**67**
19.	Analysis of human respiratory physiology **Abdulloyeva Mohinur**	**69**
20.	Kutubxonada innovatsiyalar: Zamonaviy axborot makonida yangi ildizlar **Toshpo‘latova Rayhona Jo‘rabek qizi**	**73**
21.	ISTIQLOLDAN KEYINGI O‘ZBEK NASRIDA TASAVVUF ALLOMALARI OBRAZINING YARATILISHI **Buriyeva Shaxnoza Alisher qizi**	**78**
22.	РОЛЬ КУЛЬТУРНОГО КОНТЕКСТА В ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА **Султонмуродова Фарангиз Акрамовна Жозилова Рухшона , Ганиева Рухшона**	**82**
23.	ОСОБЕННОСТИ СЕМАНТИКИ ГЛАГОЛОВ ДВИЖЕНИЯ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ И ПРОБЛЕМЫ ИХ ПЕРЕВОДА **Джураева Фарахбону Исмамуллаевна Насриддинова Ирода. Суннатуллаева Хумора. Шамсиддинова Нигина**	**87**
24.	O‘quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlash jarayonida jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish **Shomurodov Sarvar Elbek o’g’li Nasimov Ulug’bek Orif o’gli**	**92**

25.	Voleybol musobaqalarida talabalarning psixologik barqarorligini rivojlantirish **Nasimov Ulug'bek Shomurodov Sarvar Elbek o'g'li**	**105**
26.	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI ORASIDA RAQAMLI O'YINLAR ORQALI IJTIMOIY-EMOTSIONAL KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELINI SHAKLLANTIRISH **G'ayratova Nargiza Bahodir qizi**	**111**
27.	MILLIY IQTISODIYOTDA IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING AHAMIYATI **Ergasheva Dildora Diyor qizi**	**114**
28.	Milliy Madaniyatida Reklama Dizaynining Estetik Talqini **Vasikdjanovna Nigora Yusupova**	**117**
29.	TIL VA TAFAKKUR SINTEZI: CLIL TEXNOLOGIYASI ORQALI FANLARARO INTEGRATSIYANING YANGI BOSQICHI **Nishonova Durdona Olimjon qizi**	**123**
30.	O'ZBEKISTON SHAROITIDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA RAQAMLI VA BIOTEXNOLOGIK YECHIMLARNING O'RNI **Fatxullayev Amonillo Murodillo o'g'li**	**130**
31.	YASHIL ENERGIYA TEXNOLOGIYALARINING EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI **Fatxullayev Amonillo Murodillo o'g'li**	**133**